

Orzigul Hamroyeva



**FITRATNING
ADABIYOTSHUNOSLIKKA
OID QARASHLARI**



**BOOKMANY
PRINT**
nashriyoti kompaniya

ISBN 978-9910-9738-9-5



9 789910 973895

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Orzigul Hamroyeva

**FITRATNING
ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID
QARASHLARI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 894.375
KBK: 83.3(50‘z)
H 21

Hamroyeva Orzigul.

Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari [Matn] : monografiya /
Orzigul Hamroyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 84 b.

Monografiyada Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari tadqiq etilgan. Olimning ilmiy risola, majmua va maqolalari tadqiqotning obyekti vazifasini bajargan.

Monografiyadan adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi mutaxassislar, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi yuzasidan tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar foydalanishlari ko‘zda tutilgan.

Mas’ul muharrir:

Nurboy Jabborov, *filologiya fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar

Hamidulla Boltaboyev, *filologiya fanlari doktori, professor*

Bahodir Karimov, *filologiya fanlari doktori, professor*

Qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy kengashining 2023-yil 5-iyuldagi 11-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9738-9-5 © **Hamroyeva O.**
© **“Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

So‘zboshi

Abdurauf Fitrat zamonasining yirik olimi sifatida adabiyotshunoslikning barcha yo‘nalishlarida izlanishlar olib borgan. Fitrat matnshunos, manbashunos, tilshunos, lug‘atshunos, adabiyotshunos, nazariyotchi sifatida bir qancha ilmiy risola va maqolalar yaratdiki, bu ilmiy merosda aks etgan ilmiy xulosalarning aksariyati bugungi kun tadqiqotlari uchun asos vazifasini o‘tamoqda. Garchi oradan bir qancha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, olim tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hali hanuz o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Abdurauf Fitrat garchi adabiyotshunoslikka oid qarashlarini maxsus tadqiqot yoki maqola shaklida yozmagan bo‘lsa-da, olimning bu boradagi ilmiy xulosalari adabiyot tarixida yashab, ijod etgan shoirlar ijodiyoti tahliliga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarida, ularning manbalari va matniy tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy risola, majmualarida o‘z aksini topgan. Aslida Fitratning har bir yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlari alohida tadqiqot uchun material bo‘la oladi. Fitratning tahrir va tahlil uslubi alohida tadqiqqa muhtoj. Olimning matnshunoslik va manbashunoslikdagi xizmatlari beqiyos, ularni bir butunlikda taqdim qilish adabiyotshunosligimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Biz ushbu monografiyada Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlarini tadqiq etishga imkon qadar harakat qildik, natijada bu boradagi izlanishimiz tugal bo‘la olmasligini angladik, tadqiq jarayonida olimning yangidan yangi tadqiqotlariga duch keldik. Bu esa adabiyotshunoslikda hali qilinajak vazifalar ko‘pligini ko‘rsatadi. Ushbu monografiyada Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari quyidagi yo‘nalishlar asosida taqdim qilindi:

- Olimning davrlashtirishga oid qarashlari;
- aruzshunos sifatidagi faoliyati;
- Fitratning manba bilan ishlash tamoyili;
- olimning lug‘atshunos sifatidagi faoliyati;
- adabiy tur va janrlarga oid munosabati ;
- badiiy asar uslubi masalasi;
- qofiyaga oid qarashlari;
- milliy she‘r tizimi, tahlil, talqinlar;
- adabiy oqimlar borasidagi ilmiy xulosalari;

- badiiyat masalasi;
- Fitrat tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi;
- qadimgi davr manbalari;
- Fitratning tasniflash tamoyili(“Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi asosida).

Umid qilamizki, qo‘lingizdagi monografiya Abdurauf Fitratning ilm yo‘lidagi, adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Muallifdan

FITRATNING DAVRLASHTIRISHGA OID QARASHLARI

Adabiyot tarixini o'rganishning muhim muammolaridan biri davrlashtirish sanaladi. Adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi faqat boy madaniy merosni o'rganishni yengillashtiruvchi metodik jihat bo'libgina qolmay, balki ijodkorlarning adabiyot tarixidagi o'rni, ular yaratgan asarlarning xalq madaniyati rivoji uchun ahamiyati va adabiy jarayon masalalarini nazariy jihatdan tadqiq etishga yordam beradi. Shuning uchun adabiyot tarixi bilan mashg'ul bo'lgan olimlar borki, ular davrlashtirish muammosini chetlab o'tmaganlar. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishga oid mulohazalar Fitratdan tashqari, M.Solihov, V.Zohidov, N.Mallayev, A.Qayumov, B.Qosimov, Q.Yo'ldoshev, N.Rahmonov, H.Boltaboyev va D.Quronov kabi olimlarning bu boradagi tasniflari mavjud. Prof. N.Rahmonov bu masalaga "O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari" monografiyasini bag'ishlagan. Monografiyada olim davrlashtirish adabiyotshunoslikdagi eng katta vazifalardan biri ekanligini ta'kidlab, olimlar tomonidan taqdim qilingan davrlashtirishning turli ko'rinishlarini keltirib, bu yo'ldagi yutuq va kamchiliklarni batafsil bayon qilgan. "Adabiyotshunoslikning eng muhim muammolaridan va vazifalaridan biri ma'lum bir davrdagi adabiy jarayonning boshqa bir davrdagi adabiy jarayondan alohidalik xususiyatlarini, ma'lum bir davr adabiyotini davrlashtirish uchun asos bo'ladigan mezonlarni belgilashdan, bir so'z bilan aytganda, har bir davrning ma'lum adabiy qonuniyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat"¹.

Adabiyot tarixini o'rganishda, adabiy ta'sir masalasini aniqlashda davrlashtirishning o'rni katta. Garchi bugungi kunga qadar bu masala to'liq yechimini topmagan bo'lsa-da, o'zbek adabiyoti tarixini turli jihatlariga ko'ra tasniflari mavjud. O'z davrining yirik olimi Abdurauf Fitrat ham adabiyot tarixiga oid manba va matnlarga oid tadqiqotlarining asosi sifatida davrlashtirishga e'tibor qaratgan, XX asr boshlarida birinchilardan bo'lib, o'z versiyani taqdim qilgan. Garchi olim davrlashtirishga oid maxsus maqola yozmagan bo'lsa-da, olimning deyarli har bir ilmiy maqola va asarlarida bunga ishora bor. "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasidagi so'zboshilarda

¹ Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – Б. 6.

olimning bu boradagi ilmiy qarash va xulosalari keltirilsa, majmuadagi manbalarni berishda amal qilingan dastlabki tartib va mezon davrlashtirish tizimidir. Fitrat turkiy adabiyot tarixini davrlashtirishga uringan. F.Ko‘prulu, Ismoil Hikmat kabi olimlarning tajribasiga tayangan holda davrlarni belgilashda asosan adabiy hodisalarni chegara qilib olganiga alohida e’tibor qaratish lozim. Majmuaga kirgan og‘zaki va yozma ijod namunalari o‘zi yashagan zamondagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar asosida berishga majbur bo‘lgani holda “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasining birinchi qismini uch qismga ajratadi. Olim mana shu uch qism orqali o‘zbek adabiyoti tarixidagi mavjud davrlarga oid qarashlarini ham ifoda qiladi. Majmuaning ikkinchi qismi ikki davrni qamrab olishi kerak edi. Demak, Fitrat adabiyot tarixini 5 katta davrga ajratgan:

1. Qabilaviy adabiyot
2. Feodallik davri adabiyoti
3. Savdo sarmoyasi davri adabiyoti
4. XVI asrdan keyingi davr adabiyoti
5. Jadidchilik davri va inqilobdan keyingi davr adabiyoti.

“O‘zbek adabiyoti namunalari”ning so‘zboshisidan ma’lumki, Fitrat adabiyotimiz tarixining uch davriga tegishli manbalarni “O‘zbek adabiyoti namunalari”majmuasining birinchi qismiga kiritgan. Bular:

- 1.Qabilaviy adabiyot
- 2.Feodallik davri adabiyoti
- 3.Savdo sarmoyasi davri adabiyoti

Prof. H.Boltaboyevning fikricha, Fitratning “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga bir qarash” maqolasi yaratilajak majmuaning so‘zboshisi sifatida yozilgan². Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Fitrat adabiy davr chegaralari sifatida tarixiy voqealarni emas, balki adabiy asarlarni oladi. Bu jihatdan “Savdo sarmoyasi davri” adabiyotini “Qutadg‘u bilig”dan “Boburnoma”gacha deb belgilashi diqqatga sazovor. Dastlabki davrlar tasnifida ham garchi aniq yaratilgan yillari aks etmagan bo‘lsa ham, davrlar chegarasini adabiy-badiiy asarlar deb belgilagani ma’lum. Chunki “qabilaviy”, “feodallik”, “savdo sarmoyasi” kabi ijtimoiy jarayonlar turkiy adabiyot rivojlangan

² Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Т., 1996.

hududlarning barchasida ham bir tekisda kechmagan bo‘lishiga qaramasdan, ular mafkura talabi bilan zamonasozlik uchun qo‘yilgan sarlavhalar ekani ma’lum. Shunga qaramasdan, majmua e’lon etilishi bilanoq J.Boybo‘latov kabi “marksistik ustanovka”da qat’iy turgan tanqidchilarning zarbasiga uchragan³. Fitratga qadar turk olimi Fuad Ko‘pruluning quyidagicha tasnifi adabiy jarayonda keng qo‘llanilgan:

1. Islomiyatga qadar turk adabiyoti.
2. Islom madaniyati ta’siridagi turk adabiyoti.
3. Ovro‘pa madaniyati ostida bo‘lgan turk adabiyoti.⁴

Fitrat mantiqan ushbu tasnifga suyanan. Biroq uni “islomiyatga qadar” va “islom madaniyati ta’siridagi” deb atash o‘rniga davr talabiga mos ravishda yuqoridagicha “qabilaviy” va “feodalliq” adabiyoti deb belgilagan. Markscha nazariyaga ko‘ra, quldorlik va feodalizm tuzumidan keyin kapitalistik munosabatlar davri boshlanadi. Fitrat yashagan davrda O‘zbekiston boshqa sharq xalqlari kabi feodalizmdan sotsializmga sakrab o‘tgan, degan qarash mavjud edi. Shuning uchun, birinchidan, o‘z muxoliflarini xafa qilmaslik uchun, ikkinchidan, “kapitalizm” so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qilib “savdo sarmoyasi davri” deb atagan. Uchinchidan esa, G‘arbiy Yevropada XVII–XVIII asrlardan boshlangan savdo sarmoyasi bizda XI asrdan mavjud ekaniga ishora qilmoqchi ham bo‘lgan.

Fitrat “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida nima sababdan bu davrni “savdo sarmoyasi davri” deb nomlaganini izohlaydi. Bu davr Chig‘atoydan boshlab temuriylar saltanatining yemirilishi(XIII-XVI)ga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi⁵. Olim bu davrlarda yaratilgan asarlarning tili ham chig‘atoycha ekanligini tan oladi, hatto Alisher Navoiy, Lutfiy va Muhammad Solih baytlaridan parchalar ham keltiradi. Biroq olimning fikriga ko‘ra “chig‘atoy adabiyoti” degan istiloh, albatta, yangidir. Bu istiloh u qadar ilmiy emas.⁶ Ayni o‘rinda olim bu atamaning o‘rniga “savdo sarmoyasining davri” atamasini taqdim etadi.

³ Bu haqda qarang: Фитрат. Ёпишмаган гажжаклар (Ж.Бойбўлатовга очик хат) // Қизил Ўзбекистон. 1929. 16 сентябрь.

⁴ Кўпрулу Ф. Турк адабиёти тарихи. 2-босқич. – Истанбул, 1980 (турк тилида).

⁵ Фитрат. Чигатой адабиёти. Танланган асарлар 2-жилд. (Нашрга тайёрл. Х.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2000. – Б.38.

⁶ Фитрат. Чигатой адабиёти. Танланган асарлар 2-жилд. (Нашрга тайёрл. Х.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2000. – Б.37.

Agar e'tibor berilsa, Fitrat davrlashtirishda davr ijtimoiy-iqtisodiy holatini asos qilib olgan, bu holat esa ayni davrda adabiyot tarixini davrlashtirgan bir qancha olimlar tasniflarida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, Friche, Otajon Hoshim, Bo'lot Soliev tasniflarida ayni atamalar qo'llanadi. Xususan, "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasiga Otajon Hoshim tomonidan yozilgan so'zboshida ham bu holat ko'zga tashlanadi. Fitratshunos H.Boltaboyev Fitratning davrlashtirishga oid qarashlari uchun Bo'lot Solievning mulohazalari asos bo'lganini ta'kidlaydi⁷. Professor U.Jo'raqulov esa Fitratning Friche, Otajon Hoshim, Bo'lot Soliyevdan ta'sirlangan degan uch gipotezani bir to'g'ri fikrning uch xil varianti ekanligini ta'kidlab, Fitratning davrlashtirish tendensiyasi davr talabidan kelib chiqqan degan xulosani keltiradi⁸.

Olim davrlashtirish borasida ijtimoiy tamoyillarga asoslangan bo'lsa-da, ma'lum davr adabiyoti namunasini o'sha davr mahsuli sifatida emas, mazmun-mohiyati, tasvir vositasi shu davr holatiga to'g'ri kelishi bilan belgilaydi. Shu bois asar "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasining so'zboshisida bu davrlashtirish qat'iy emasligini ta'kidlaydi. Chunki olim tomonidan taqdim qilingan "qabilaviy", "feodallik", "savdo sarmoyasi" turli hududlarda turlicha tartibda kechgan. Shuning uchun ham olim bu davr namunalari sifatida keltirilgan manbalarni xronologik tartibda emas, mazmun-mohiyatiga qarab taqsimlagan. Masalan, "Chistoni Elig Begi hikoyasi" asari tili va uslubining yengilligiga ko'ra O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridan keyingi davrda, VIII-IX asrlarda yaratilgan degan ilmiy xulosalar olimning o'zi tomonidan taqdim qilingan bo'lsa-da, "qabilaviy davr adabiyoti" namunasi sifatida keltirilgan. O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridan namunalar esa ikkinchi davr – "feodallik davri adabiyoti" namunasi sifatida taqdim qilingan. "Devonu lug'otit turk" asari tizmalaridan keltirilgan "Ov o'yunlari" sarlavhali matn "qabilaviy davri adabiyoti" namunasi sifatida ayni asardan olingan "Alb Erto'nga" marsiyasi "feodallik davr adabiyoti" namunasi sifatida taqdim qilingan. Demakki, olim bu borada asarlardan parchalar berishda o'ziga xos ilmiy qarash tarafdori bo'lgan. Garchi

⁷ Ботабоев Х. XX аср боши ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Фил.фан.док. дисс. -Т., 1996. -Б.105.

⁸ Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. -Т., 2003. -Б.50.

bu davrlashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalar asos qilib olingan bo'lsa-da, olim davr manbalarini berishda ularning mazmun mohiyatiga e'tibor qaratgan.

Fitrat “qabilaviy davr adabiyoti” namunalari sifatida “Chistoni Elig begining hikoyasi”, “Devonu lug‘otit turk” asaridagi manzum parchalardan tuzilgan “Ovdan urushg‘a” sarlavhali tizma va “Alpomish” dostonining bosh va so‘nggi qismlaridan parchalar keltirilgan. Olim bu manbalarning tanlanish sababini “ma‘nan qabilachilik hayotig‘a yaqin turg‘anlari, u hayotni tasvir qilg‘anlari uchundir” deb izohlaydi⁹. Bu davrga oid manbalar miloddan oldin yaratilgan. Biroq bu manbalar va ularning mohiyati xususida aniq fikr aytish imkonsiz. Chunki bu manbalar bizgacha yetib kelmagan. Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasining so‘zboshi qismida “qabilaviylik davri” va “feodallik davri” xususida tugal xulosaviy berish imkonsiz ekanligini ta‘kidlaydi. Chunki bu jarayon turli hududlarda turlicha kechgan. Ba‘zi xalqlarda qabilaviy hayot feodallik bilan birga kechgan. Hatto bu jarayon olim aytganidek “zamonimizg‘acha davom qilg‘an”. “Qabilaviy davr adabiyoti”ning dastlabki janri doston bo‘lib, dostonlarda insonlarning ibtidoiy e‘tiqodlari, yaxshi-yomon ruhlarga, jin-u ajinalarga ishonish hodisotlari aks ettirilgan. Fitrat ilk turkiy dostonlardagi bu holat turkiy dostonlar uchun maxsus emasligini ta‘kidlaydi. Yunon dostonlarida ham, xususan, “Shohnoma” tarkibidagi dostonlarda ham devlar bilan bog‘liq voqeliklar mavjudligi ma‘lum. Yunon dostonlaridagi bu holat Fitrat aytganidek, turkiy dostonlarning ham boshidan o‘tgan. “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibidagi tarqoq parchalardan bir tizim sifatida yig‘ilgan “Ovdan urushg‘a” sarlavhali tizmada ham qabila hayoti, ularning birgalikda yovga qarshi kurashi aks etgan tasvir keltirilgan. Olim bu parchadagi tasvirga alohida e‘tibor qaratadi, tasvirda aks etgan jarayon qabilaviy hayotning asosiy belgilaridan biri ekanligini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra qabilaviy hayotning, ayniqsa, turkiy xalqdagi qabilaviy hayotning ko‘p qismi tinchlik bilan emas, urushlar bilan o‘tgan. Bir qabilaning ovloq – o‘tloqlariga boshqa bir qabila hujum qilgan. Bu esa qabilaviy hayot uchun odatiy hol bo‘lgan.

⁹ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи О.Ҳамроева). -Т., 2013. Б. 9.

Bu davrning keyingi namunasi sifatida “Alpomish” dostonining boshlang‘ich va so‘nggi qismdan parchalar keltiriladi. Bu orqali olim doston boshlang‘ichidagi Qo‘ng‘irot elining bir jamoaviy-qabilaviy hayot tarzi, urf-odatlarini aks etgan o‘rinlarini namuna sifatida taqdim qiladi.

Fitrat davrlashtirishining ikkinchi davri “feodallik davri adabiyoti” deb nomlanib, bu davr adabiyotining asosiy xususiyati sifatida tasvir, voqelik bir feodal tegrasida sodir bo‘lishi, uning qahramonliklari tasviri, madhi badiiy matn mohiyatini tashkil etishi keltiriladi. Fitrat bu davrning dastlabki manbasi sifatida “O‘g‘uzxon” dostonini tilga oladi. Biroq olim bu dostonning matni qo‘lida mavjud emasligini va shu sababdan majmuada namuna keltira olmaganini ta’kidlaydi. Bu davrning dastlabki manbasi sifatida O‘rxun-Enasoy bitiktoshlaridan biri “Kultegin” bitiktoshidan nasriy bayoni bilan birgalikda namuna keltiradi. Bu davrning keyingi manbalari sifatida Alb Erto‘nga” marsiyasi, “Kitobi DadaQo‘rqud”, “Devonu lug‘otit turk” asaridan keltirilgan ta’limiy mazmundagi parchalar taqdim qilinadi. Fitrat nega aynan bu manbalar tanlanganini birma-bir izohlaydi. Xususan, “Kitobi DadaQo‘rqud” eposidagi voqealar bir feodal – Buyundurxon va uning qahramonliklari atorofida sodir bo‘ladi. Hatto Qo‘rqud ota voqea qahramonlari bo‘lmish kichik feodallarga yordam beruvchi avliyo sifatida keltiriladi.

Fitrat “savdo sarmoyasi davri adabiyoti” deb nomlagan davr juda katta davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, temuriylar davri adabiyotining o‘zi juda katta salmoqqa ega. Olim “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida chig‘atoy adabiyoti XIII-XVI asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olishi aytilsa-da, “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida “savdo sarmoyasi davri adabiyoti” namunalari sifatida XI-XVI asrgacha bo‘lgan davrda yaratilgan manbalardan parcha keltirgan. Garchi Fitrat “chig‘atoy adabiyoti” atamasining o‘rniga “savdo sarmoyasi adabiyoti” atamasini qo‘llashni tavsiya etgan bo‘lsa-da, maqolada ma’lumotlarni taqdim qilishda “chig‘atoy adabiyoti” atamasini qo‘llagan, xususan, chig‘atoy adabiyotini alohida kichik davrlarga bo‘lib tahlil qilgan: doston adabiyoti, yassaviylik adabiyoti va saroy adabiyoti. Fitratning bu taqsimoti adabiy ta’sir va muhit bilan bog‘liq. “Savdo sarmoyasi davri adabiyot”ning dastlabki namunasi sifatida keltirilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Ahmad

Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarlari doston adabiyotining taraqqiy etgan shakli sifatida davriy ketma-ketlikda yaratilgan. Fitrat Yassaviy va shogirdlari tomonidan yozilgan hikmatlarni alohida va janrlar takomili va mohiyatdagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda keyingi davrni ilm-fan, adabiyot taraqqiy etgan davr - temuriylar davri adabiyotini – saroy adabiyoti sifatida taqdim qilgan. Bu davr adabiyoti va ularning janriy takomilida fors adabiyotining ta’siri katta ekanligini ta’kidlaydi. Fitrat Chingizdan Temurgacha bo‘lgan davrdagi adabiyot bir muddat turg‘unlik davrini boshdan kechirganini aytadi. Chunki bu davr urush va talato‘plarni boshdan kechirgan bo‘lib, “tugal bir badiiy asarning borlig‘i ma’lum emas”¹⁰. Professor N.Rahmonov Fitrat bu fikr orqali Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan asarlarni ko‘zda tutmagan degan qarashni ilgari suradi¹¹. Fitrat “turg‘unlik davri” namunalari sifatida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Xojaning “Miftoh ul-adl” asarlarini keltiradi. Fitrat Xojaning “Miftoh ul-adl” asari va uning muallifi borasida taxminiy fikrlarga ega bo‘lgani uchun manbani taqdim qilayotganida “shu davrda yozilg‘ani mening tomonimdan gumon qilinmoqda bo‘lgan” degan izohni keltiradi. Fitrat bu manba O‘zbekiston Maorif komissarligi huzuridagi ilmiy markaz fondida saqlanishini, asarning kim tomonidan qachon yozilgani ma’lum emasligini, Shahzoda Temurga bag‘ishlangani, biroq bu Shahzoda Temur ham qachon va qayerda yashab o‘tgani majhul ekanligini asos sifatida keltiradi. Keyingi yillardagi tadqiqotlarda asar muallifi, yaratilgan yili va Shahzoda Temur Shayboniyxonning o‘g‘li ekanligi haqidagi ma’lumotlar ilmga taqdim qilindi.¹²

Fitrat bu ikki manbadan so‘ng temuriylar davri adabiyotiga kirib borilishini ta’kidlab, bu davrning dastlabki manbasi sifatida Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarini keltiradi. Bu davrning keyingi manbalari sifatida Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo”

¹⁰ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева). -Т., МУМТОЗ СЎЗ, 2013. Б. 56.

¹¹ Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. -Т.: МУМТОЗ СЎЗ. 2016. -Б. 10.

¹² Хамроева О.Ж. XX аср бошлари матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. Монография. -Т.: Академнашр. 2019. Б.76

dostoni¹³, Atoiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi manbalari keltiriladi.

Fitrat har davr manbalarini tahlil qilish barobarida davrning ilmiy-adabiy muhiti borasida ilmiy xulosalarni taqdim qiladi. Xususan, “savdo sarmoyasi davri” adabiyot tarixi davrlari orasida manba va yaratilgan asarlarning badiiy va ilmiy qimmatini jihatidan ancha yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Birgina Navoiy ijodiga baho berishda uning shoirligi va san’atkorligi chig’atoy shoirlaridan ancha baland ekanligini asoslab beradi. Fitrat tomonidan “Savdo sarmoyasi davri”dan keyingi davr – XVI asrdan keyingi davr adabiyoti temuriylar davri adabiyoti bilan qiyoslanganda juda sayoz adabiyot sifatida baholanadi. Olimning fikricha, bu davr adabiyotining “tushib ketishi”ning asosiy sababi - ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi va xonlarning har birining taxtga o‘zlarini munosib ko‘rib, taxt uchun olib borgan ichki urushlari. Bu davr adabiyotida Fitrat ta’biri bilan aytganda “saroyning muhtasham takallufli, bezakli uslubini tashlab, omma uslubiga yaqinlashuviga tirishishi”¹⁴ yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fitrat bu davrning dastlabki vakili sifatida Shayboniyxonni e’tirof etadi, Shayboniyxon saroyida ijod qilgan Muhammad Solih ijodini davr adabiy mahsuli sifatida alohida tahlil qiladi. Buxoro xoni Ubaydulloxonni yassaviylik maktabi yo‘nalishida hikmat janrida ijod qilganini, forsiycha va o‘zbekcha she’rlari ko‘pligini ta’kidlagan holda bu davrning eng yaxshi shoiri deb tan oladi. Shu bilan birgalikda Fitrat bu davr adabiyotidagi janriy va mazmuniy o‘zgarishlar xususida birma-bir to‘xtaladi. Tarjima maktablarining yuzaga kelgani, tarixnavislik, tazkiranavislik kuchaygani va shu bilan birgalikda saroy adabiyotining xalq adabiyoti bilan yaqinlashganini ta’kidlaydi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini ayni xususiyatning namunasi e’tirof etadi. Bu davr XIX asrning boshlariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, Fitratning “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash” maqolasida bu davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari: Buxoro, Xiva, Qo‘qon adabiy maktablari, vakillari, manbalari, adabiy ta’sir

¹³ Qarang: Xamroeva O.J. XX asr boshlari matnshunosligi taraqqiёtida Fitrat majmualarining ўrni. Monografiya. -T.: Akademnaşr. 2019. B. 66-68.

¹⁴ Fitrat. XVI asrdan sўngra ўzbek adabiёtiġa umumiy bir qarash / Tanlangan asarlar. 2-jild. (Nashrga tayёрl. X.Boltaboёv.) – T.: Maъnaviyat, 2000. – B.58.

kabi masalalarga to'xtalangan, bu davrning chig'atoy adabiyotidan farqli 4 xususiyati ilmiy xulosa shaklida taqdim qilingan:

1. Bu davr adabiyoti oldingi davr adabiyotidan san'at jihatidan tuban, biroq son jihatidan ko'p.

2. Bu davr adabiyotiga XVII asrdan keyingi davrlarda Fuzuliyning ta'siri katta bo'lgan.

3. Bu davrda tarixiy asarlarga katta e'tibor berilgan.

4. She'riyatda Yassaviy maktabi bu davrda saroygacha ko'tarildi, ya'ni Ubaydulloxon hikmat janrida samarali ijod qilib, bu janrni qayta adabiyotga olib kirdi.

Fitratning davrlashtirish borasidagi qarashlari, adabiyot tarixi va manbalari xususidagi ilmiy qarashlari bugungi tadqiqotlar uchun asosiy material bo'lib xizmat qilmoqda. Garchi Fitrat o'zbek adabiyotini davrlashtirishda ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarni asos qilib olgan bo'lsa-da, manbalar taqsimotida, davr adabiy muhitini belgilashda o'ziga xos ilmiy tamoyilni asos qilib olgan, shu asosda ilmiy xulosalarini taqdim qilgan.

FITRAT – ARUZShUNOS

Abdurauf Fitrat she'r ilmining yetuk bilimdoni sifatida bir qancha tadqiqot va risolalarda poetika, vazn, badiiyat masalalarida jiddiy e'tibor qaratgan. She'r va shoirlik masalasi, mumtoz va milliy she'r tizimi, uning badiiy adabiyotdagi o'rni kabi ilmiy-tahliliy tadqiqotlar Fitrat ilmiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Fitrat o'z davrining qomusiy olimi sifatida mumtoz she'r nazariyasi borasida yirik tadqiqotni amalga oshirgan, tadqiqot asosida taqdim qilingan ilmiy xulosalar nafaqat o'z davri, balki bugungi kun adabiyotshunosligi uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XX asr tadqiqotlari orasida turkiy she'r nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy risolalar u qadar ko'p bo'lmay, buning bir qancha ijtimoiy sabablari bor. Davr adabiy muhiti, adabiy ta'sir masalalari asosiy sabablardan biridir. Fitrat yashagan davr barmoq vaznining milliy she'r tizimiga aylanayotgan davr sifatida ko'zga tashlanadi. Fitratning dastlabki maqola va ilmiy risolalarida ham barmoq vazni imkoniyatlarini ochishga qaratilgan ilmiy tahlillar va xulosalar asosiy o'rinni egallaydi.

Garchi aruz she'r tizimi XX asrdan keyingi davrlarda eskirgan vazn sifatida qaralgan bo'lsa-da, adabiyot tarixini o'rganish, mumtoz asarlar tahlilini amalga oshirishda bu ilmning nazariy asoslarini bilish muhim ekanligini olimlarimiz juda yaxshi anglashgan. Xususan, Abdurauf Fitrat ham dastlab "aruzning bizning tilga yaramag'anlig'i" borasida aruz she'r tizimi va uning sun'iy sxolastik qoidalari, "faulunchilik", "zihofot"chilik masalasida fikrlari ijobiy bo'lmagan¹⁵. Olim bu boradagi qarashlarini "She'r va shoirlik" maqolasi va "Adabiyot qoidalari" asarida keltirgan. Bu boradagi fikrlarini dastlab "She'r va shoirlik" maqolasida taqdim qilgan olim keyinchalik "Adabiyot qoidalari" darsligida daliliy baytlar asosida fikrini isbotlagan. Fitrat "She'r va shoirlik" maqolasida aruz vazni o'ynoqi tillar uchun mos kelishini, turkiy til esa og'ir, viqorli, gavdali ekanligini, bu vazn turkiy til uchun mos emasligini ta'kidlaydi. Vaznni turkiy tilga moslashtirish uchun ikki usul: arabiy, forsiy so'zlarni qo'shish, turkiy tildagi so'zlarning "gavdasini buzish"ga

¹⁵ Фитрат. Адабиёт қоидалари. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. -Б. 35.

majbur bo‘lish kerakligini aytadi. Olim Navoiyga murojaat qilib, turkiy so‘zlar “gavdalarini buzmay” she‘r aytishga majbur bo‘lgani, bundan o‘zini qutqara olmaganini

Yuzingni ko‘rib, meni ramida

Ishq o‘tig‘a bo‘lg‘ali giriftor,

baytidagi “yuz” so‘zini “yuzz” tarzida buzib aytmaguncha, vaznga to‘g‘ri kelmasligini isbot tarzida keltiradi¹⁶. Olim bu qarashlari “Adabiyot qoidalari” asarida ham o‘z aksini topgan. Nima sababdan Fitrat dastlab aruz she‘r tizimi borasida ijobiy fikrda bo‘lmagan? Tabiiyki, til imkoniyatlari she‘r tizimining tanlanishiga zamin yaratadi. Olim aruz arab adabiyotida paydo bo‘lgani, keyinchalik kamchiliklari tuzatilib, fors adabiyotiga kirib kelgani borasida fikr bildiradi. Turkiy adabiyotga kirib kelgan aruz tizimi ham turkiy aruz emas, balki o‘sha arab-fors aruzidir. Fitratning fikriga ko‘ra turkiy aruz davom etadi, aruz turkiy adabiyotda yashab qolishi mumkin, biroq bu ham bo‘lsa, arabiy, forsiy so‘zlarning ishtiroki hisobiga ro‘y beradi. Olim arab-fors tillardagi “madd”(cho‘ziqlik) turkiy til imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmasligi, turkiy tilda uning maxsus o‘lchovi yo‘qligi, shuning uchun ham turkiy tilda aruz vaznida yozilgan baytlarda keraksiz o‘rinlarda cho‘ziqlarning keltirilishi “bemaza aytilg‘an” va “she‘rning turk og‘zidan chiqmag‘aniga hukm qiladir” degan fikrni bildiradi. Fitrat fikrining isboti sifatida Durbek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Komil Xorazmiy va Amir Umarxon ijodidan baytlar keltirib, afoyillarga mos tushmagani va vazn talabi bilan sun‘iy cho‘zish holatlari borligini isbotlashga harakat qiladi. Risolada Boburning mashhur:

O‘zni ko‘ngul aysh ila tutmoq kerak,

Bizni u...nutqonni u...nutmoq kerak

bayti *foilotun, foilotun, foilotun* tarzida keltiriladi. Vaholangki, bu bayt Boburning o‘zi tomonidan sari’ bahrida yozilgani ilmiy risolasida qayd qilingan¹⁷. Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida bir xil vaznda: mutaqoribi musammani mahzuf(maqsur) vaznida yozilgan forsiy va turkiy dostonlarni qiyoslaydi. Ayni vazn Firdavsiyning

¹⁶ Фитрат. Шеър ва шоирлик. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. -Б. 10.

¹⁷ Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. -Т.: Талим-медия, 2019. -Б. 28.

“Shohnoma” asari uchun mos tushgani, urush maydonlari tasviriga mos tushganligini ta’kidlaydi. Bunga qiyos ravishda Navoiyning “Saddi Iskandariy dostoniga murojaat qiladi. Bu doston ham “Shohnoma” vaznida yozilgan. Olimning fikriga ko’ra “fors she’rlardag’i vaznlar orasida juda o’ynoqi, juda sho’x vaznlar bor. Biroq bularning go’zalliklari shu fors tilidagina qoladi”¹⁸.

Biroq oradan ma’lum vaqt o’tib, she’r ilmida o’z bilimlarini mustahkamlagan, mumtoz manbalar va matnlar tahlili bilan shug’ullangan olim bu sohadagi qarashlari o’zgarganini, sabablarini “Aruz haqida” ilmiy risolasida birma-bir ochib bergan. Hatto olim o’zining bu qarashlarini “bu hayotga millatchilikning ko’r va qorong’u ko’zoynagi bilan qarag’anim u zamonlarda edi, xato edi, ham o’ta ketgan xato edi” deya iqrор bo’ladi, buning ijtimoiy sabablarini ko’rsatadi. Unga ko’ra Fitrat yashagan davrda o’zbek millatchiligi barmoq vaznini, panturkizm aruz vaznini yoqlagan. Fitrat barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o’zbek millatchisi bo’lgan. Buning asosiy sabablaridan biri esa xalqqa yaqinlashish. Chunki xalq adabiyoti va uning vazni - barmoq vazni bunga imkoniyat yaratgan. Olim ikkinchi sabab sifatida Turkiyada o’qiganining ta’sirini ko’rsatadi. Chunki vazn masalasida ularning fikrlari Fitratning fikrlari bilan aynan bo’lgan. Fitrat bu boradagi katta xatosi sifatida “...butun dunyodan qat’iy aloqa qilg’an, na Sharqdan, na G’arbdan hech bir narsa olmagan yop-yolg’iz bir “o’zbek madaniyati”ni qurmoq uchun kurash”ganini keltiradi¹⁹. Keyingi tadqiqotlarida o’zbek adabiyoti katta tarixga ega ekanligi, bugungi kunga qadar qanchadan qancha bosqichlarni bosib o’tganligini ilmiy asoslab beradi. Shu orqali dastlabki qarashlari noto’g’ri ekanligiga iqrор bo’ladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Fitratning “Aruz haqida” asari turkiy aruz qoidalarini fitratona uslubda taqdim qiladi. Aruz vaznini imkoniyatlarini sun’iylikdan qutqarish maqsadi bilan “chirmanda usuli”ni taklif qiladi. Olim bu usul Sharqda birinchi tajriba ekanligini ta’kidlab, aruzni sxolastik qoidalar qolipidan chiqarishni maqsad

¹⁸ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.37.

¹⁹ Фитрат. Аруз ҳақида. / Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б.228.

qilganligini ta'kidlaydi. Asar tarkibidagi ruknlarni berishda ham childirma ohangiga mos taqlidiy soʻzlarni qoʻllab tushuntiradi.

Ishlarimizni boʻldurduq
bakko bako bak bakko bak

- V V - - / - - -

Dushmanimizni soʻldurdiq.
bakko bako bak bakko bak

- V V - - / - - -

Fitrat bu atamalarni shunchaki qoʻllamagan, hijolar sifatini berishda “faulun” kabi arabiy, forsiy istilohlar oʻrniga klassik musiqamizning usul qoliplari(chirmanda usuli)ni keltirgan. Unga koʻra:

- -	bakko
V V	baka
- V	bakka
V -	bako
-bak ²⁰	

soʻzlari afoyil vazifasini bajargan. Olim hijolar taqsimotida ikki hijoni taqdim etadi: Toʻliq hijo va qisqa hijo. “Yopiq hijo” va “ochiq hijo” atamalarining oʻrniga “toʻliq hijo” va “qisqa hijo” atamasini almashtirgani sababini soʻzlar misolida izohlaydi. Unli bilan tugagan “ochiq hijo(V)” urgʻu olish imkoniyati bilan “toʻliq hijo(-)”ga oʻzgarishi mumkin, shunga tayanib, “ochiq hijo” atamasidan voz kechib, “toʻliq hijo” va “qisqa hijo” atamasini taklif qiladi, turkiy til imkoniyatlariga moslashtirilgan vazn imkoniyatlarini yangi alifboda taqdim qilayotgani bois transkripsiyalar asosida beradi. Fitrat “Aruz haqida” asarining dastlabki qismida sheʼr ilmi: aruz va uning tarixi xususida toʻxtaladi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, olim ayni oʻrinda salaflari va ularning fikrlariga munosabatlarini ham bildirib oʻtadi. Xususan, Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida keltirilgan shoirning aruz va xalq sheʼriyati borasidagi fikrlarini qoʻllab-quvvatlaydi, barmoq va aruz vazni imkoniyatlarini, farqli jihatlarining qiyosini keltiradi. Fitrat aruz ilmining bilimdoni sifatida Miyon Buzrukning “Ijodiy yoʻlimiz haqida” maqolasidagi baʼzi fikrlarga tanqidiy munosabatini bildiradi. Miyon Buzruk tomonidan

²⁰ Фитрат. Аруз ҳақида. / Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б.238.

bildirilgan “aruz va barmoq vaznlari unsurlarining birlashmagidan hosil bo‘lgan uchinchi xil vaznlar bor” degan ilmiy faraziga munosabat bildiradi. Miyon Buzruk tomonidan xalq adabiyoti namunasi sifatida taqdim qilingan baytlar haqidagi xulosalar noto‘g‘ri ekanligini uch xulosaviy qism orqali isbotlab beradi.

Sabo esnayur ko‘r, yog‘och yeng solur,

V - - / V - - / V - - / V -

Bulut yig‘layur-da, chechaklar kulur.

V - - / V - - / V - - / V -

Bu mundog‘ chechaklika ko‘nglim bukun,

V - - / V - - / V - - / V -

Sening birla o‘lturib ovunmoq tilar.

V - - / V - - / V - - / V -

Miyon Buzruk ushbu baytni aruz vaznida yozilmaganligini ta’kidlaydi. Fitrat esa bu bayt aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilganini chizmalar asosida ko‘rsatib beradi. Miyon Buzruk bu bayt “xalq adabiyotidan parcha” ekanligini yozsa, Fitrat bu bayt “Qisasi Rabg‘uziy”dan keltirilgani, muallifi Nosiriddin Rabg‘uziy ekanligini keltiradi. Miyon Buzrukning bayt xususidagi uchinchi xato hukmi bayt yaratilgan davri bilan bog‘liq. Olim bayt to‘rt-besh asr avval yaratilganligiga ishora qilsa, Fitrat bu bayt 6 asr ilgari yaratilganini ta’kidlaydi. Fitratning o‘z davri olimlari bilan bu kabi bahsli munosabatlari asarda yetarlicha topiladi. Fitrat aruz nazariyasini tizimli ravishda tushuntirishga harakat qiladi. Aruz vaznini “boy va muzikali” vazn ekanligini ta’kidlab, saksonga yaqin vaznlarni to‘play olganini, bu aruz vaznlarining hammasi emasligini ma’lum qiladi²¹. Fitrat dastlab aruzdagi atamalar va ularning ma’nolari bilan tanishtiradi, manbalarda keltirilgan ruknlar tasnifini bilan tanishtirar ekan, ruknlar har doim bir xil bo‘lmasligini, rukn turlarini belgilashda hijolarga murojaat qilish kerakligini, ularning cho‘ziq, qisqaligiga qarab rukn turlarini taqsimlash to‘g‘ri yechim ekanligini ta’kidlaydi. Olim manbalarda keltirilgan sababi xafif, sababi saqil, vatadi majmu’, vatadi mafruq, fosilai sug‘ro, fosilai kubrolarni ajratishda shu tizimga rioya qilinmagani, hijolarni bir-biriga qo‘shilishiga ko‘ra taqsimlangani Xalil ibn Ahmad

²¹ Фитрат. Аруз ҳақида. Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б.229.

maktabining birinchi yangilishi bo‘ldi deb izohlaydi²². Bobur ham “Muxtasar” asarida fosilani alohida ajratish zarurat emasligini, u sabab va vatadlarning qo‘shiluvidan hosil bo‘lishini ta’kidlagan edi²³.

Fitrat “Aruz haqida” asarida 35 rukn: 8 ta asliy, 27 ta far’iy ruknlar bilan tanishtiradi, vaznlarni asliy rkunlarga va 19 bahr 80 vazn hijolarini sanab, 6, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 20lik sarlavhasi otida 12 turkumga ajratgan holda taqdim qiladi. Olim 12 turkum tarkibida qaysi vaznlar bo‘lishi mumkinligini baytlar misolida tushuntirib beradi. Masalan, Fitrat sakkizlik turkumi va uning vaznlari xususida to‘xtalganda, bu turkumda ikki vazn majudligini aytadi:

1. Bu vaznda qisqa hijo yo‘q, ikki to‘liq hijodan iborat bo‘lgan -
- (bakko) to‘plamining to‘rt marotaba takroridan hosil bo‘ladi.

Yomg‘urlardan yer jonlandi,

- - / - - / - - / - -

Ko‘klamliklar suvdan qondi.

- - / - - / - - / - -

Qorlar, muzlar birdan bitdi,

- - / - - / - - / - -

Qish chindan ham izdan ketdi.

- - / - - / - - / - -

Bu vazn *fa‘lun* ruknining to‘rt marotaba takroridan hosil bo‘lib, mutaqoribi musammani maqtu’ deb nomlanadi. Fitrat bu vaznni aruz va barmoq sistemalari orasidagi mushtarak vazn ekanligini ta’kidlaydi. Buning dalili sifatida aruzdagi ikki rukn orasidagi so‘zlarning misralar va turoqlararo mos tushganini ko‘rsatadi. Ya’ni

Yomg‘urlardan / yer jonlandi,

- - / - - / - - / - -

Ko‘klamliklar / suvdan qondi.

- - / - - / - - / - -

Qorlar, muzlar/ birdan bitdi,

- - / - - / - - / - -

Qish chindan ham / izdan ketdi.

- - / - - / - - / - -

²² Yuqoridagi manba. -B.234.

²³ Захириддин Мухаммад Бобир. Мухтасар. (нашрга тайёрл. С.Ҳасанов). -Т: Фан. 1971. Б.18

Fitrat shu shaklda 80 ga yaqin vaznni afoylil va taqti'larini keltirgan holda izohlaydi, baytlardan namunalar keltiradi. Olim arab-eron aruzidagi vaznlarning ba'zida har bir misrada bir yoki ikkita turoq bo'lishini ta'kidlab, (*) ishorasini beradi, "ist" atamasini kiritadi.

Arzim ni ay tay * bodi saboga

-- / V - - */ - - / V - -

Bizdan duo deng * ul be vafoga.

-- / V - - */ - - / V - -

Ey yo rijo nim * be mah rekansan,

-- / V - - */ - - / V - -

Rahm ay lamas san * man mub taloga

-- / V - - */ - - / V - - (*Mutaqoribi musammani aslam*)

Misralardagi turoqlanish 5+5 tarzida ikkiga bo'lingan. Bu turoqlanish aruziy bo'linishga ham, barmoqdagi turoqlanishga ham mos tushgan.

Fitrat risolada o'n oltiliklar turkumiga oid vaznlarni keltirar ekan, Usmon Nosirning "Yurak" she'rini tahlilga tortadi.

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo'r etding.

Shoirning bu misralari hazaji musammani solim vaznining yarim misrasi bir misra shakliga tushirilib, sakkizlik holatida yozilgan.

Yurak, sensan mening sozim,

V - - - / V - - -

Tilimni nayga jo'r etding.

V - - - / V - - -

Fitrat buning aruzdagi nomi "hazaji - mashtur" ekanligini ta'kidlab, vaznning aslidagi uzun qiyosiga qaraganda shu shaklda qisqargani yaxshi ekanligiga ishora qiladi. Fitrat risolada aruz nazariyasini taqdim qilish barobarida ana shunday qiyosiy tahlillarga ham keng o'rin ajratgan. Olim baytlar taqsimotida Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Bobur, Huvaydo, Muhammad Alixon, Fazliy, Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Ravnaq, Hashmat, N.Rahimiy, Usmon Nosir kabi turli davrlarda yashab, ijod etgan ijodkorlar ijodiga murojaat qiladi.

"Aruz haqida" risolasining aruzshunoslikdagi muhim jihatlaridan biri shundaki, Fitrat ruboiy vaznlarini alohida sarlavha ostida taqdim

qiladi. Olim ruboiyni eron she'rlari orasida sobit bir vaznga ega bo'lmagan janr sifatida ta'riflaydi. Ruboiy har misradagi hijolarning son va sifat e'tibori bilan ayni miqdor va ayni tartibda bo'lmaydi. Ruboiy vaznida bir misra o'n hijolik bo'lgan shaklda turib, ikkinchi misra 13 hijolik shaklda bo'la oladi. Shu jihatdan Fitrat bu janrni aruz qoliplariga solishning imkoni bo'lmagani va shuning uchun ham ruboiyning 24 vaznini o'ylab topishganini ta'kidlaydi. Olim ruboiyning 24 vaznini emas, 15 vaznini izohlaydi. Olimning fikriga ko'ra, o'zbek tilining "maddsizlik" xususiyatiga ko'ra 24 vaznning faqat 15 vaznigina til imkoniyatiga javob beradi. Shu jihatlarni hisobga olib Fitrat 24 vazni 15 vaznga tushirganini izohlaydi²⁴, vaznlar jadvalini keltiradi, baytlar misolida tushuntiradi.

She'r ilmi, aruz tizimiga oid risolalar yetarlicha, ular orasida Fitratning "Aruz haqida" risolasi o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Risolada ilmiy-nazariy qoidalar barobarida, ilmiy-ijodiy yondashuv, muallif uslubi, qiyosiy tahlillar, dalillar yetakchilik qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, risoladagi ma'lumotlarni o'zlashtirish mutaxassisga ham, ijodkorga ham, kitobxoniga ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Fitrat o'z ta'biri bilan aytganda, bu ilmiy risola aruz vazni bilan yaxshilab tanishtirmoq va aruz vazni masalasini faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun emas, balki barcha uchun mo'ljallangan ilmiy tadqiqot sifatida keng muhokama maydoniga kirgizish uchun yaratilgan.

²⁴ Фитрат. Аруз ҳақида. Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Н.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б.259.

FITRATNING ADABIY TUR VA JANRLARGA MUNOSABATI

Adabiy tur va janrlar masalasi, unga doir tahlillar Fitrat ilmiy maqola va risolalarining asosini tashkil etadi. Olimning “Adabiyot qoidalari” asarida badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlariga umumiy qarash yetakchilik qilsa, “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida”, “Qutadg‘u bilig‘”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Chig‘atoy adabiyoti”, “XVI asr so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”, “O‘zbek shoir Turdi”, “Muhammad Solih”, “Mashrab”, “Fors shoiri Umar Xayyom”, “Farhod va Shirin” dostoni haqida”, “She‘r va shoirlig‘”, “Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” kabi maqolalarida lirik janrlarning poetik tahliliga oid ilmiy-nazariy qarashlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Fitrat badiiy adabiyot tushunchasi va unda yozma va el adabiyotining o‘z o‘rni borligini “Adabiyot qoidalari” asarida atroflicha tahlilga tortgan. Olim e‘tiborga tortgan dastlabki masala: yozma va el adabiyotining farqlii jihatlarini nimalarda ko‘rinadi? Bu ikki turdagi adabiyotni shakliga ko‘ra ajratish qay darajada to‘g‘ri bo‘ladi? Bu borada Fitrat Vadud Mahmud fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Vadud Mahmud “Navoiygacha bo‘lgan turk adabiyoti” maqolasi²⁵da el adabiyotining xususiyatlari to‘g‘risida fikrlari keltirilgan bo‘lib, Fitrat tomonidan ahamiyatli deb topilgan bu yondashuv “Adabiyot qoidalari”da tahlilga tortilgan. Unga ko‘ra ikki olim ham el adabiyotining qay shaklda (og‘zaki, yozma) yaratilgani bu ikki turga ajratilishiga asos bo‘la olmasligini ta‘kidlaydilar. Deylik, bir asar yozma shaklda yaratilib, yo‘qolsa, keyinchalik uning parchalari og‘izdan og‘izga ko‘chib, muallifi unutilishi va el adabiyotiga aylanishi mumkin. Yoki aksincha maqol, matal, dostonlar keyingi avlodga yozma shaklda yetib kelishi tabiiy jarayon. Shu sabab bilan Fitrat el adabiyotining asosiy xususiyati yozish yoki yozilmaganlik, muallifi ma‘lum yoki ma‘lum emaslikda deb belgilash noto‘g‘ri ekanligini ta‘kidlab, fikrining isboti sifatida Muqimiy, Furqat, Haziniy kabi ijodkorlarning bir qancha she‘riy parchalari ommalashib, el adabiyotiga aylanib ketganini keltiradi. Shu asosda el adabiyotining

²⁵ Вадуд Махмуд. Навоийгача бўлган туркий адабиёт. Маориф ва ўқитғучи. № 1. 1926.

maxsus janrlari va ularning tahliliy natijalari asosida ilmiy xulosalarini taqdim etadi.

Fitrat yozma adabiyotning deyarli barcha janrlariga oid parchalarini tahlilga tortgan va janrlarning ilmiy-nazariy qoidalarini salafлари manbalaridagi xususiyatlari bilan qiyosiy o‘rgangan, davriy yangilanish va tadrijiy xususiyatlarini qayd qilgan. Fitrat yozma adabiyotning uch adabiy turini o‘ziga xos tarzda nomlaydi:

1. Yurakchilik – lirika
2. Rivoya – epos
3. Tomosha²⁶

Olim adabiy turlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib nomlaydi.

Lirika tuyg‘uni ifoda etishi, nasr voqeani bayon qilish, dramaturgiya ko‘rsatib berishga asoslangani bois ayni atamalar tanlangan. Fitrat tomosha deb nomlagan adabiy tur adabiyotchilar tomonidan drama deb nomlanishi, drama keng ma’noda adabiy tur, tor ma’noda dramaturgiyaning bir janri sifatida ishlatilishini ta’kidlab, qiyinchilik tug‘dirmasligi uchun drama so‘zini tor ma’noda qo‘llashni afzal ko‘rganligini izoh sifatida keltiradi. Fitrat dramaga voqeaning tasviri shoir, yozuvchining tilidan emas, shu voqeaga aralashgan kishilar tilidan bayon qilinishiga asoslanuvchi adabiy tur deya ta’rif beradi. Fitrat XX asr boshlarida dramaning yorqin namunasini yaratgan ijodkor sifatida drama muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy sabablardan biri sifatida dramaturg va aktyorlarning o‘z vazifalarini mahorat bilan bajarishlarini ko‘rsatadi va shu bilan birgalikda muvaffaqiyat shartlari keltiriladi:

1. To‘lalik
2. Birlik
3. To‘g‘rilik.

Bu uch shart dramatik asarni mukammal yaxlit asar sifatidagi takomilini ta’minlab beradi. Unga ko‘ra asarda qahramonlarning xarakterlari to‘la ochilgan bo‘lishi(to‘lalik), asardagi har bir tasvir, voqelik bir-biriga bog‘langan bo‘lishi(birlik), tabiiy bo‘lishi(to‘g‘rilik) drama muvaffaqiyatini ta’minlab beradi. Fitrat dramaturgiyaning komediya, tragediya, drama janrlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlari borasida yetarlicha

²⁶ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.78.

ma'lumotlar keltiradi. Adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asarning tarkibiy qismlari sifatida taqdim qilingan boshlanma, voqealar rivoji va tugallanma dramatik asarda Fitrat tomonidan

1. Bog'lanish
2. Borish
3. Bitish

tarzida nomlanadi, ularning asardagi o'rni va vazifalari borasida fikrlar keltiriladi²⁷. Fitrat komediyaga Uyg'unning "Turkiston tabibi", tragediyaga Behbudiyning "Padarkush", o'zining "Abulfayzxon", "Abo Muslim" asarlarini namuna sifatida keltiradi, tahlil qiladi, janr imkoniyatlarini ochib beradi. Fitrat dramaning sahna va musiqa bilan uyg'un janri – operaga ham e'tibor qaratadi, opera janrida yozilgan dastlabki asar sifatida G'ulom Zafariyning "Halima" asarini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, Fitrat XX asr boshlarida kirib kelgan dramaturgiya xususida yetarlicha bilim va tahlil ko'nikmasiga ega bo'lgan.

Abdruaf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da rivoya adabiy turiga masal, doston, hikoya, roman janrlarini namuna tarzida keltiradiki, olim janrlar taqimotini asarlarning yozilish shakliga qarab emas, voqealarni adib tomonidan tasvir etilishiga asoslanishiga ko'ra ajratganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, masal janri xususida to'xtalganda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Gulxaniyning "Zarbulmasal", Elbekning "Ikki tulki" masallarini namuna sifatida keltiradi. Doston janri xususida ma'lumot keltirilganda ham, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy", Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo", Muhammad Soliyning "Shayboniynoma", G'ulom Za'fariyning "Cho'lpon temir", "Vonnaycha" asarlari tahlilga tortiladiki, bu asarlar bugungi kundagi nasrga to'g'ri kelmaydi. Bu dostonlarning barchasi she'riy shaklda yozilgan bo'lsa-da, voqeiylikka asoslangani bois olim tomonidan rivoya adabiy turini janrlaridan biri sifatida keltirilgan.

Fitrat bu adabiy turning muhim janrlaridan biri hikoyaning imkoniyatlarini o'z davrida yaratilgan hikoyalarning mohiyatidan kelib chiqib izohlaydi, "tirikchiligimizda bo'lub turg'an ko'b

²⁷ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.80.

voqealarning qorong‘u puchmoqlarini oydinlatib ko‘rsatadir” deya ta’rif beradi. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, “Oydin kechalarda” kabi hikoyalarini muhim, Abdulla Qodiriyning “Tinch ishi”, “Uloqda” hikoyalarini go‘zal, shoir Elbekning “Qo‘shchi turg‘un” hikoyasini uzun hikoya sifatida ta’riflaydi.

Fitrat roman rivoya asarlar orasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, roman yozish juda mushkul ish ekanligini aytadi, roman janrining yagona namunasi sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini keltiradi. Chunki ayni davrlarda “O‘tkan kunlar”dan boshqa roman yaratilmagan edi.

Abdurauf Fitrat nasriy va dramatik asarlarni alohida sarlavhalar ostida taqdim qiladi, lirika janrlar borasida esa o‘ziga xos uslubni qo‘llaydi. Olim lirika janrlar vazn bilan bog‘liq ekanligini yaxshi anglaydi va mumtoz lirik janrlarni “Fors-arab aruzida tizim shakllari” sarlavhasi ostida taqdim etadi. Barmoq vazni uchun maxsus lirik janrlar keltirilmaydi. Buning asosiy sababi sifatida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon: aruz va barmoq vazni elementlarining bir-biriga o‘tgan holatdagi she’riy shakllarning yaratilishi va endigina kirib kelgan barmoq vazniga oid yangi janrlarning shakllanmaganini ko‘rsatish mumkin. Shu sabab Fitrat faqat mumtoz lirik janrlar izohi bilan cheklangan. “Adabiyot qoidalari”da lirik janrlardan 10tasi haqida ma’lumot keltiriladi.

“Adabiyot qoidalari” risolasida dastlabki janr sifatida g‘azal izohlanadi. Matlanning o‘zaro qofiyadosh bo‘lishi, 12 baytdan oshmasligi borasidagi xususiyatlari keltirilib, Alisher Navoiyning “Ko‘rmadim” radifli g‘azali namuna sifatida keltiriladi²⁸. Olimning fikriga ko‘ra g‘azal fors adabiyoti uchun yangi emas, fors shoirlari masnaviy va qasida yozish barobarida g‘azal ham yozganlar. Demakki, bu uch janr fors adabiyotida parallel ravishda rivojlangan. Olim “Fors shoiri Umar Xayyom” maqolasida g‘azalchilik qasida “mo‘dadan chiqq‘anidan” keyin yashiroq ko‘tarilganini qayd etadi²⁹. Turkiy adabiyotida uning takomili Navoiy ijodida ko‘zga tashlanadi.

²⁸ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.39.

²⁹ Фитрат. Форс шоири Умар Хайём. Танланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Маънавиуат. 2000. -Б. 139.

Fitrat 12 baytdan ortiq she'r shaklini qasida deb nomlaydi. Ayni o'rinda Fitrat negadir adabiyot tarixida bir qancha qasidalar mavjud bo'lishiga qaramay, "bizning o'zbek-chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li judayam kengaymagani, chiroylik namuna o'rnaklari oz"ligini ta'kidlaydi³⁰. Olim "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida qasida janrining tarixiga to'xtaladi. Qasida arab adabiyotining qadimiy janrlaridan biri ekanligini ta'kidlab, adabiyot tarixida "Qasidai lomiya" nomi bilan mashhur qasidaning yaratilish tarixi va mazmuni bilan tanishtiradi.

Lirik janrlar orasida masnaviy olim tomonidan juda ko'p tadqiq etilgan janrlardan biri sanaladi. Olimning "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "Muhammad Solih", "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida, "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolalarida masnaviyning keng imkoniyatlari yoritilgan, masnaviy doston va maktublar yoziladigan janr sifatida izohlangan. Olimning "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida "Fors adabiyotig'a umumiy bir qarash" sarlavhasi ostida fors adabiyotining muhim janrlari sifatida masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy janrlari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiriladi³¹. Ayni maqolada Fitrat masnaviyning eng qadimgi janrlardan biri sifatida baholaydi, hijriy IV asrda yashagan B.Balxiy, Daqiqiy, Rudakiy; hijriy V asrda yashagan Asadiy, Firdavsiy asarlarini ilk namuna sifatida ko'rsatadi.

Fitrat lirik janrlar tahlilida Navoiy asarlariga ko'p bora murojaat qiladi. Xususan, ruboiy janri haqida to'xtalganda, Navoiyning ruboiy hazaj bahrining 24 vaznida yoziladi degan fikriga o'z munosabatini bildiradi. Olimning fikriga ko'ra bu 24 vazn bir-biriga shunchalar yaqinki, hatto Navoiyning o'zi ham namuna keltirayotganda ularni aralastirib yuborgan. Shuning uchun ham Fitrat "Aruz haqida" risolasida ruboiyning 24 vaznini 15tasini keltiradi³². Olimning forsiy ruboiylar borasida fikrlari "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida keltirilgan bo'lib, olim maqolada ruboiy va masnaviy janri forslarga arab adabiyotidan emas, eski milliy adabiyotlaridan kirib kelganligini

³⁰ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.80.

³¹ Фитрат. Форс шоири Умар Хайём. Танланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Маънавият. 2000. -Б. 135.

³² Фитрат. Аруз ҳақида. Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б.259.

asoslaydi. Olim ruboiyning har bir misrasiga alohida e'tibor qaratadi. Adabiyotshunoslar ruboiyning eng chiroyli misrasi sifatida 4-misrasini e'tirof etadilar. Fitrat ham bu fikrni tasdiqlaydi. Hatto turkiy adabiyotdagi to'rtliklarda ham 4-misrada asl maqsad aks etishini ta'kidlaydi. Shu asosda ruboiyning ildizlarini shu kabi to'rtliklarga bog'lash kerakmikan degan fikrni ham ilgari suradi. Biroq qat'iy isboti bo'lmagani bois ruboiyni Eron xalq adabiyotidan olingan degan ehtimolda qoladi. Olim maqolada fors shoirlarining har bir misrasi bir shoirga tegishli bo'lgan mashhur ruboiylarini tahlilga tortadi, shu orqali ruboiyning imkoniyatlarini ochib beradi³³.

Fitrat ruboiy janri izohida tuyuqqa to'xtalib o'tadi, tuyuqni ruboiyning ikkinchi bir shakli sifatida taqdim qiladi. Ahmad Taroziy ham "Funun ul-balog'a" asarida 10 janrni izohlar ekan, tuyuqni ruboiyning bir shakli sifatida ko'rsatgan edi³⁴. Fitrat ham Ahmad Taroziy izidan borib, tuyuqni ruboiyning ikkinchi shakli sifatida ko'rsatadi va Navoiyning "Mezon ul-avzon" asariga murojaat qiladi. Navoiyning tuyuq ramal bahrida yozilishi kerak degan fikrini keltirib, Navoiyning mashhur "Yo labmudur" tajnisli tuyug'ini namuna sifatida keltiradi. Shu o'rinda Fitrat o'z davrida tajnisli shaklda yaratilayotgan to'rtliklarga ham e'tibor qaratadi, shoirlar tomonidan aruz vazniga yaqin jinsli she'r shakllari yaratilayotganiga ishora qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Fitratning mumtoz lirik janrlar haqidagi fikrlariga Navoiyning ilmiy-nazariy qarashlari asos bo'lgan. Bu holat olimning mustazod borasidagi fikrlarida ham ko'zga tashlanadi. Chunki Fitrat mustazod janri haqidagi ma'lumotlarni Navoiyning "Mezon ul-avzon" asaridagi ma'lumotlarga tayanib keltiradi, Navoiyning ma'lumoti asosida mustazod "turk kuylariga to'g'ri keltirib o'qumoq uchun so'ngra tuzulg'an bir shakl" degan xulosaga keladi.

Fitrat "Adabiyot qoidalari"da musammat janriga keng o'rin ajratadi, musammatning misralar miqdoriga ko'ra va yaratilishiga ko'ra turlari xususida ma'lumotlar keltiradi. Namuna sifatida

³³ Фитрат. Форс шоири Умар Хайём. Танланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Маънавият. 2000. -Б. 141.

³⁴ Аҳмад тарозий. Фунун ул-балоға -Т.: Ҳазина, 1996.

Husayniyning Alisher Navoiyning “Netay” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmis muxammasini keltiradi.

Fitrat murakkab janr sifatida tarji‘band va tarkibband xususida ham to‘xtaladi. Bu ikki janrning o‘ziga xos va farqli jihatlarini, qofiya tizimi va vosila bayt misolida Navoiy tarji‘bandi asosida tushuntirib beradi.

Fitrat “Ahmad Yassaviy”, “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” maqolalarida hikmat janri xususida to‘xtaladi³⁵. Olim Ahmad Yassaviy she‘rlarining bir parchasiga “hikmat” unvoni berilganini ta’kidlab, hikmatlarning shakli va uslubiga qarab ularning muallifligi masalalariga e’tibor qaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlar masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Badiiy asar tahlilini amalga oshirishda ularning janriy imkoniyatlari inobatga olgan va shu orqali janriy o‘zgarishlar ko‘rsatib bera olgan.

³⁵ Фитрат. Аҳмад Яссавий. Танланган асарлар. 2-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2000. -Б. 16.

FITRAT TADQIQOTLARIDA BADIY ASAR USLUBI MASALASI

Badiiy asar tahlili va adabiy muhit, adabiy ta'sir masalalari bevosita uslub bilan bog'liq tushunchalardir. Shu bois adabiy muhit xususida to'xtalganda davr uslubi tahlilning bosh mezon sifatida olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Abdurauf Fitrat tadqiqotlarining barchasida ana shu mezon: badiiy asar uslubi, uning badiiy adabiyotdagi o'rni masalasi asosidagi tahlil yetakchilik qiladi.

Fitrat uslubni haqiqiy ijodkor darajasini belgilab beruvchi asosiy unsurlardan bir sifatida qabul qiladi³⁶. Fitrat aytganidek, ijodkor dastlab oddiy uslubda yozadi, keyinchalik mahorati oshgani sayin o'z uslubiga ega bo'la boshlaydi. Kuchsiz adib-yozuvchilar esa bundan mustasno, ularning asarlarida uslub o'zini ochiq ko'rsata olmaydi. Mavzu eski, asarlar, yillar davomida murojaat qilingan bo'lsa-da, uning eskiligini sezdirmay o'qishga majbur qiladigan kuch uning uslubidadir. Fitrat ushbu holatning go'zal namunasi sifatida "Layli va Majnun" dostonining turli davrlarda turli shoirlar tomonidan yozilgan variantlarini qiyoslaydi, yetuk adabiyotshunos sifatida ulardagi uslubning o'ziga xosligi asosida darajasini belgilab beradi. Garchi dostonning yuzdan ortiq shakllari bo'lsa-da, forsiyda Nizomiy Ganjaviyni, undan keyin Jomiy dostonini ko'p o'qishlarini takidlaydi. Turkiyda esa Navoiy uslubidan Fuzuliy uslubini yuqori baholaydi. "Fuzuliyini ko'rgach, Navoyining "Layli-Majnun"ini tokchaga qo'yub, Fuzuliyini o'qishga majbur kabi bo'ladi. Mana bu uslubning ishidir"³⁷. Shu o'rinda eski va yangi shoirlarimiz izohi ostida Navoiy, Bobur, Husayn Boyqaro uslubi bilan Cho'lpon, Botu, Elbeklarning uslubi tubdan farq qilishini ta'kidlaydi. Garchi mumtoz shoirlar ishq mavzusida juda ko'p qalam tebratishgan bo'lsa-da, Cho'lpon ijodidagi she'rda bu mavzuga munosabat tubdan farq qilishi, uslubining o'ziga xosligi sabab sevib o'qilishi Fitrat tomonidan asos sifatida keltiriladi. Olim "turkona uslub", "sharqona uslub" masalasiga ham e'tibor qaratadi, Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasiga murojaat qiladi, "turkona uslub"da ijod qiluvchi

³⁶ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.17.

³⁷ Yuqoridagi asar. -B.18.

deb ta'riflangan shoirlarning bunday nom qozonish sabablarini izohlaydi.

Ijodkorning o'z uslubi bo'ladi, biroq bu uslub barcha asarlarida bir xil bo'lmaydi. Fitrat bu holatni to'g'ri anglaydi. Navoiyning "Layli va Majnun" va "Lison ut-tayr" dostonlarining uslubi boshqa-boshqa, "Layli-Majnun"dag'i o'ynab qaynag'an uslubni uning "Lison ut-tayr"ida ko'rib bo'lmasligini ta'kidlaydi³⁸.

"Adabiyot qoidalari"da dastlab ijodkor uslubini masalasiga to'xtaladi, so'ng davr uslubi borasida munosabat bildiradi. Chunki ijodkor uslubi u yashagan davr adabiy muhiti va uslubini belgilab beradi. Fitrat asarda "Uslubning adabiyotdagi o'rni juda katta, juda muhimdir... Umarxon zamonining uslubi bilan Muqimiy, Avloniy zamonidag'i uslub ham bu kungi yangi adabiyotimizning uslubi boshqa-boshqa uslublardir"³⁹, degan fikrni ifoda qilgach, uning isboti uchun Alisher Navoiy, Umarxon va Cho'lpon asarlaridan misollar keltiradi. Natijada "Mana shu o'rnaklar Navoiy zamoni, Umarxon zamoni ham bu kunning uslublari orasidag'i ayirmani ko'rsatgani kabi bu shoirlardan har birining o'ziga maxsus bir uslubini ham ko'rsatadi, ham ularning tizim-sochim asarlaridag'i o'zgarish ko'rinib turadi"⁴⁰, deb yozadi. Kuzatishimizcha, fikr davr uslubi borasida ketyapti. Fitrat temuriylar davri adabiyotining asosiy xususiyati sifatida bu davr adabiyotining uslubi islom-eron madaniyati ta'sirida shakllangan degan xulosani beradi. Bu uslubdagi asarlarda saroy – yuqori sinf vakillari ta'riflanadi va bunday asarlar dabdaba va hashamatni sevuvchilar uchun yaratilganini davrning asosiy uslubi sifatida ko'rsatadi. Bu uslub ancha keng: Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo" dostonidan tortib, Fitrat bilan zamondosh Muqimiy, Kamiylar ijodigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Olim "Adabiyot qoidalari"da xalq adabiyoti uslubiga yaqin turuvchi asarlarga katta ehtirom bilan qaraydi va ular yuqori baho beradi. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Mashrab she'rlari, Andalibning "Yusuf va Zulayxo" dostoni va Fitrat tomonidan

³⁸ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.19.

³⁹ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.17.

⁴⁰ Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Б. 23.

muallifi noma'lum asarlar sifatida keltirilgan "Ahmadbek" va "Zufunun" dostonlarining uslubi har qanday dabdabadan xoli samimiy adabiyot ekanligini ta'kidlaydi. Shu asosda ikki davr uslubini qiyoslaydi: ular o'rtasidagi farqni "tog'lar qadar" deb ko'rsatadi. Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida fikrlarining isboti sifatida o'z uslubiga ega ijodkorlar ijodidan namunalar keltiradi. Tabiiyki, nasr va nazm uslubi o'ziga xos bo'ladi. Fitrat bu kabi farqli jihatlarni ko'rsatish maqsadi bilan ijodkorlarning har ikki adabiy turdagi asarlariga murojaat etadi. Xususan, Boburning "Qoldimu?" radifli g'azali va "Boburnoma"dan keltirilgan parchalar vositasida tizim va sochimning ayricha uslubini ko'rsatishga harakat qiladi. Davr uslubidagi farqlarni ko'rsatish maqsadida Cho'lpon, Elbek ijodidan namunalar keltiradi⁴¹.

Fitratning uslubi borasida fikrlari "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasida ham aks etgan bo'lib, olim majmuada yuqoridagi ilmiy qarashlarning amaliy ifodasi sifatida ko'proq o'z uslubiga ega bo'lgan, boshqa adiblardan yorqin uslubi bilan ajralib turgan adabiy namunalarni majmuasiga kiritgan.

Olimning "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari" asarlarida ham bu mavzuda yetarlicha fikr yuritilgan. Asarda har bir davr o'ziga xos usul bilan bayon qilinadi. Xususan, olim chig'atoy adabiyotining uslubi "kayf-safo, ishq, go'zallik, may, gul, bulbul" kabi tasvir vositalarning aks etishida namoyon bo'ladi, deb yozadi. Demakki, bu davrning adabiyoti "kishini allalaydigan shaklda" go'zal ifodalar bilan bezatilgani uchun ham o'ziga xos uslubga ega. Olim har davr adabiyotining asosiy xususiyatini uslub bilan bog'liq holda quyidagicha belgilaydi:

a) qabilachilik adabiyotining asosiy uslubi qabilaviy hayotni tasvir qilganlikda ko'rinadi;

b) feodallik adabiyoti esa bir hokim, feodal shaxsning madhiga, ta'rifiga, ular atrofidagi voqealarga bag'ishlangan adabiyot ekanligini e'tirof etadi;

v) savdo sarmoyasi davri adabiyoti xususida to'xtalganda, uning o'ziga xos xususiyatini "haqiqiy san'at" ekanligida deb belgilaydi.

⁴¹ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.20-23.

Demak, Fitrat garchi ijtimoy prinsiplardan kelib chiqqan holda asarlar taqsimotini amalga oshirgan bo'lsa-da, davrlar namunalarining mavzu ko'lamini asosiy o'ringa chiqargan. Ijtimoiy ahvol, davriy xususiyatlar o'z davri adabiy parchalarida aks etishi tabiiy holat. Shu nuqtayi nazardan olim har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan. Badiiy vositalarning qo'llanishi, g'oyaviy xilma-xillik, tadrijiy tasvir yo'nalishlarini tadqiq etgan holda har bir asarga munosabat bildirgan, shu orqali har bir davrning o'ziga xos xususiyatini belgilab bergan.

FITRATNING QOFIYAGA OID QARASHLARI

Mumtoz she'r tizimi va uning nazariy masalalari borasida Abdurauf Fitrat ilmiy risola va maqolalarida o'z munosabatini bildirib ketgan.

XX asr boshlarida Abdurahmon Sa'diy⁴² va Abdurauf Fitrat⁴³ kabi olimlar adabiyot nazariyasi oid qarashlarini matbuot orqali e'lon qilish bilan birga, nazariy ilmlar yig'indi bo'lmish darsliklarda qofiyaning o'ziga xos ko'rinishlarini XX asr o'zbek she'riyati misolida asoslab bergan. Bu ikki olimning qofiya nazariyasiga oid qarashlari bir davrda bir-birini to'ldirgan munosabat sifatida mumtoz qofiya va barmoq vazniga oid she'rlarning qofiya tizimini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Abdurahmon Sa'diy Fitratdan farqli o'laroq qofiyaning bitim deb ataydi. Fitrat qofiyaga ta'rif berar ekan, "misralarning oxirida tovushlar bir xil turli bo'lgan bo'g'um(bo'g'in)"larga nisbatan qofiya so'zini ishlatadi. A.Sa'diy keltirgan ta'rif ham Fitrat ta'rifi bilan aynan bo'lsa-da, biroq bo'g'in tushunchasini hijo tushunchasi bilan almashtiradi. Ma'lumki, hijo atamasi aruz ilmiga oid, barmoq vaznida bo'g'in bilan almashgan. Ba'zi holatda barmoq vaznidagi bo'g'in hodisasi hijo atamasi ostidagi hodisa bilan aynan emasligi ham ma'lum.

A.Sa'diy bitim(qofiya)ni tizmalarning muhim sharti sifatida baholaydi. Qofiyaga ta'rif berish asnosida ilmi qofiyaning o'quvchiga tanishtirish maqsadi bilan 4 misralik tizmadan namuna keltiradi.

Har kimda bir shodlik, har kimda bir ruh...

Har kim kulub qarar emish dunyog'a;

Hatto chol-bobolar aytalarmish: Uh...

Chiqib yursak edi yozg'a, havog'a!⁴⁴

A.Sa'diy ushbu misralar muallifini keltirmaydi. Misrani tahlil qilar ekan, 1-va 3-misra (*ruh, uh*) va 2-va 4-misra (*dunyog'a, havog'a*) o'zaro qofiyalanganini ta'kidlaydi. Fitrat "Adabiyot qoidalari"da qofiyaga ta'rif berar ekan, namuna sifatida ikkilikdan parcha keltiradi.

⁴² Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. - Т.: 1923. - Б. 123

⁴³ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Х. Болтабоев). - Т.: Ўқитувчи, 1995. - Б. 17.

⁴⁴ Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. - Т.: 1923. - Б. 123

Adam adamdir, sajdalar ortiq,
Adam so‘zlari adamg‘a tortiq.
Bordan tugar kuch bunga bor shohid,
O‘ylaring tubsiz, samarsiz zohid⁴⁵.

Ushbu misralar Botu qalamiga mansub bo‘lib, Fitrat misradagi qofiyadosh so‘zlarni ko‘rsatar ekan, burungi she‘rlar(mumtoz adabiyot)imizda qofiyaning juda katta o‘rni borligini alohida ta’kidlaydi. Hatto vazn, qofiyasi bo‘lmagan she‘rni she‘r sifatida baholashmaganligini eslatib o‘tadi. Fitrat janrni belgilayotganda qofiyaning o‘rni borligini ta’kidlab, masnaviy va g‘azal janri asosida munosabat bildiradi.

A.Sa‘diy ham bu ikki janrga alohida to‘xtaladi. Ma’lumki, masnaviyda har ikki misra erkin qofiyalanadi. Yengilligi bois ham A.Sa‘diy aytganidek, masal va dostonlar aynan shu shaklda yoziladi. A.Sa‘diy bunday asarlar sirasiga Muhammad Solihning “Shayboniynoma” va Alisher Navoiy dostonlarini kiritadi. Fitrat ham “Adabiyot qoidalari”da masnaviyi izohlar ekan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridan 3 bayt holda masnaviy keltiradi. G‘azalning o‘ziga xos qofiyalanishi haqida munosabat bildirgan olim “G‘unchadek ko‘nglum mening” deb boshlanuvchi g‘azalni namuna sifatida keltiradi.

G‘unchadek ko‘nglum mening gulzor mayli qilmag‘ay,
G‘am bilan butkan ko‘ngil gulgasht ila ochilmag‘ay....⁴⁶

Keltirilgan g‘azal to‘liq holda emas, 4 bayti keltirilgan, xolos. Ushbu g‘azalda *qilmag‘ay, ochilmag‘ay, qilmag‘ay* (qofiya qaytarilgan: radd ul-qofiya san‘ati), *sanchilmag‘ay, ayrilmag‘ay* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar sifatida qo‘llangan.

A.Sa‘diy “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” asarida g‘azal janri haqida to‘xtaladi, biroq namuna keltirmaydi. A.Sa‘diy g‘azalni muhabbat va hasrat she‘rlari sifatida baholaydi. Garchi A.Sa‘diy radif so‘zini keltirmasa ham, radif tushunchasiga ta’rif berib o‘tadi. “Ba’zan misralarning ketida hamon ilgarigi misralarning so‘ngdag‘i

⁴⁵ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев). - Т.: Ўқитувчи, 1995. - Б. 17.

⁴⁶ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев). - Т.: Ўқитувчи, 1995. - Б. 17.

so‘zlarning o‘zi takror etila boradir. Lekin bu chog‘da asl bitimlar shu takrorlang‘an so‘zlarning yuqori yog‘idag‘i qo‘shni so‘zlarda bo‘ladir”. Fitrat esa “ba‘zi g‘azallarda har misradan keyin birgina so‘z qaytarilib” turishini, bu esa radif deyilishini alohida ta‘kidlab, Bobur ijodidan namuna keltiradi:

Jonima o‘t soldi ul ruxsorayi zebo *yana*,

Ko‘ngluma ul zulf bo‘ldi moyayi savdo *yana*.⁴⁷

Har ikki olim ham fikriy tadrijiylik asosida keyingi munosabatni to‘rtliklarga qaratadilar. Biroq fikriy munosabatda ayrichalik bor. A.Sa‘diy to‘rtliklarning *a-a-a-b* tarzidagi qofiyasini e‘tirof etib, A.Yassaviy hikmatlari hamda Elbekning “Ikkinchisi” tizmasi ayni shu shaklda yozilganini ta‘kidlaydi.

Fitrat esa to‘rtlikning qofiyalanishiga ko‘ra boshqa shaklini tushuntirishga harakat qiladi. Xuddi ruboiy kabi *a-a-b-a* tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega to‘rtliklarni izohlar ekan, 1-va 2- misralar va 3- va 4-misralarning o‘zaro qofiyalanishiga asoslangan to‘rtliklar ham mavjudligini ma‘lum qiladi. Bunday qofiyalanish Fitrat ta‘kidlaganidek, el adabiyotining ashula va dostonlarida uchraydi. Bu kabi qofiyalanish tartibi qat‘iy bo‘lmay, ba‘zan ular o‘zaro almashgan holda ham qo‘llangan.

A.Sa‘diy ham, Fitrat ham bugungi she‘riyatda(o‘z davri she‘riyatini nazarda tutgan) qofiyaning yo‘qolib borayotganligini e‘tirof etadilar. Fitrat bunday vaziyatni adabiyotning el adabiyoti(xalq og‘zaki ijodi adabiyoti)ga yaqinlashib, uning yo‘lidan borayotgani bilan izohlaydi. A.Sa‘diy qofiyasiz she‘rni bitimlardagi ohangsizlik sifatida baholaydi. Garchi olim bu tushunchani atama sifatida baholamasa ham, matn ichidagi ichki qofiyani (saj‘) ohangdoshlik sifatida ko‘rsatadi. “Ohang o‘lchovli so‘zlarning o‘z oralarida quloqqa zavq va lazzat berarlik bir ravishda saylanib to‘planishlari va musiqiylik tug‘dirishlaridan iborat”. Olim “*shoshilish, shoshish, kulishish, so‘zlashish, chopishish, shodliqliq, to‘g‘riliqliq*” kabi so‘zlarning ohangdosh (qofiyasi to‘liq emas) emasligini inobatga olib, jumlaning ohangini buzadigan vosita sifatida munosabat bildiradi. Demak, olim barmoq vazni urf

⁴⁷ Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. - Т.: 1923. - Б. 123.

bo'layotgan bir davrda qofiya ayblariga ham qisman munosabat bildirib o'tgan.

Agarchi yo'qdir "derliq" *taloshi*,
Erur tosh bo'lsa ham, chaqmoq *toshi*. *Alisher Navoiy*.

Yoki

Kuz qo'shuni og'u to'liq o'qlarni
Muni bilgach, ular buni tushundilar.
Aldanishg'a nega kundilar? *Cho'lpon*.

Ko'rinib turganidek, garchi *taloshi* va *toshi* so'zlari qofiyadosh sanalsa ham, qofiya unsurlari o'rtasida farq bor. Olim bu holatni yaxshi ilg'agan. A.Sa'diy G'ulom Zafariyning "Vannaychajon" asarini tahlilga tortar ekan, she'rdagi "yangratar" va "intilar" so'zlarining bitimdosh (qofiyadosh) qilinishi ohangni buzishini aytadi. Olim Cho'lponning "Bokuga, Sharq qurultoyig'a ketganda" she'rida esa to'liq ohangdoshlik kasb etgan bitimdosh so'zlar keltirilganini ohangdoshlikning o'ziga xos xususiyati sifatida baholaydi. A.Sa'diyning fikricha, bu kabi ohangsizlik "tizmaning ko'b g'azalligini yo'qotish"ga sabab bo'ladi. Olim bunday she'rga namuna sifatida Elbekning "Tilak yo'lida" tizmasiga e'tibor qaratadi. She'rni ilmiy tahlil qilgan olim bitimlarning ohangsizligini she'rning kamchiligi sifatida baholaydi.

FITRATNING TASNIFLASH TAMOYILI **(“Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi asosida)**

Fitrat “Devonu lug‘otit turk” asarining ilk tadqiqochisi sifatida manzum parchalarning o‘ziga xos ilmiy tamoyillar asosida tasniflagan. Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining muhim ahamiyat kasb etishi olimning ilmiy salohiyati va tadqiqotchilik mahoratining yuqoriligi bilan belgilanadi.

“Devonu lug‘otit turk” Fitratgacha bo‘lgan davrlarda juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganildi. Har bir olim asarning turli jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asardagi manzum parchalarni adabiy jihatdan tasnif qilishga urinish XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Turk olimlari B.Atalay, Najib Osimbek⁴⁸, Fuod Ko‘pruluzoda⁴⁹, xorijiy tadqiqotchilar Radlov⁵⁰, Brokelmann⁵¹ maqolalarida bu holatni kuzatamiz. O‘zbek olimlari orasida bu ishga birinchilardan bo‘lib yondashgan va hozirga qadar o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan bu tasnif Fitratga tegishlidir.

Fitrat Koshg‘ariyning asariga baho berar ekan, uning turk, turkman, o‘g‘uz, chigil, yag‘mo va qirg‘iz tillaridagi so‘zlar, ularning qofiyalari, izohlari, xalq adabiyotlari, shevalarini yaxshi o‘rganganligini ta’kidlaydi. “Eng eski turk adabiyoti namunalari” qatiga jamlangan parchalar “Devonu lug‘otit turk” asaridan olingan. Biroq shuni e’tiborga olish kerakki, ushbu parchalar Fitrat tomonidan tartib etilib, bir tizimga solingan. “Devonu lug‘otit turk” asarida majmuaga kiritilgan parchalar ma’lum bir so‘zning izohlanishi jarayonida uchraydi. Prof. Fitrat she’riy namunalarni ularning bir necha xususiyatiga ko‘ra tasniflagan:

1. Matnni nasriy bayon qilish;
2. Mavzu jihatidan tasnif;
3. Mavzularni mazmuniy asosda guruhlash;

¹ Махмуд ал-Хусайн бинни Муҳаммад ал-Кошғарий: китоби Девону луғатит турк (Ўнгсўз). – Истанбул, 1933. (араб ёзувида)

² Купрулу Ф. Турк адабиётининг маншай // Миллий татаббулар мажмуаси. 2-жилд, 4-сон. – Б.71.

³ Radloff W. Phonetik der nordischen turk sprechen/ Leipzig. -1882. – Pp. 8–19.

⁴ Brokelmann.C. Mahmud al-Kasghari uber die Sprachen un die Stamme der Turlen in X1 Jahrhr (Korosi Csama – Archivum.) 1921. – S 29, 37–39.

4. Matnning muayyan adabiy tur va janrga munosabatini aniqlash;

5. Vazn xususiyatlarini aniqlash;

6. Majmua musannifi sifatida o‘z tabdilini taqdim etish.

Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining birinchi qismida parchalarni yuqorida ta’kidlangan xususiyatlarga ko‘ra o‘zaro 14 sarlavha ostida birlashtirgan. Ushbu qismda Fitrat Fuad Ko‘prulu bilan “Alb Erto‘nga” marsiyasi borasida bahsga kirishadi. Fuad Ko‘prulu o‘zining “Turk adabiyotining manshai” maqolasida Alb Erto‘nga mavzusidagi to‘rtlikni o‘zaro mazmun jihatidan bog‘lab, to‘rt marsiyaga ajratgan edi. Fitrat esa bu manzumalardan to‘rt marsiya emas, balki ikki marsiyani tashkil etishini isbotlaydi. Qolgan ikki marsiya haqida “qolgan iki marsiyag‘a boshqa unvon berish kerak” degan xulosaga keladi. Keyinchalik “Devonu lug‘otit turk” tarkibidagi manzum parchalar matni I.V.Steblova tomonidan tadqiqqa tortilgan. I.V.Steblova B.Atalay tarjimasi, S.Mutallibov nashriga tayanib she’riy parchalar va tiklangan doston namunalari haqida so‘z yuritadi⁵². Fitrat “Devon”dan olingan parchalarni ikki qismga ajratar ekan, birinchi qismi to‘rtliklardan iborat. Undagi asarlar qisqa vaznda aytilgan. Ushbu parchalar tasvirni ifoda etayotgani bois ham tasviriy parchalar deb olganligini aytadi. Birinchi qismdagi parchalar Fitrat tomonidan quyidagi sarlavhalar ostida birlashtirilgan: 1.Yoz-Qish munozarasi; 2. Bir urush maydoni haqida; 3. Yoz o‘yinlari; 4. Ovdan urushga; 5. Tog‘ush begining urushi; 6. Uyg‘urlar bilan urush; 7. Ikki savdogar orasida; 8. Ayriliq (hijron); 9. Sevgiga oid parchalar; 10. Uch urush (besh parcha); 11. Bir urush; 12. Doston boshlang‘ichi (olti parcha); 13. Bir marsiya (uch parcha). Parchalar ham shakl, ham mazmun jihatidan o‘zaro moslashtirilib, sarlavha ostida birlashtirilgan. Majmuaning birinchi qismiga mazmun va mavzu jihatidan birlashtirilgan b-b-b-a tarzida qofiyalangan to‘rtliklar jamlangan.

Qor, buz qamug‘ arushdi,

Tag‘lar suvi aqishdi,

Ko‘kshin bulit urushdi,

Qayg‘uq bo‘lub o‘krushur. (J.1, B.162)

⁵² Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм XI века. – М., 1971.

*Butun qorlar, muzlar eridilar
Tog'larda suvlar oqa boshladilar
Havoda ko'kchil bulutlar paydo bo'lub
Har tomonda qayiq kabi yurmakdalar*

Ushbu to'rtlik keltirilganidan so'ng, keyingi to'rtlik ham go'yo uning mazmunini kuchaytirayotgandek tuyuladi.

***O'rdi bulit inkrashu (ingrashu),
Oqti aqin munkrashu (mungrashu),
Qoldi budun tanglashu (tang'lashu),
Ko'krak taqin mangrashur (mangrashur).***
*Bulut ingrab ko'rundi,
Oqin nola qilib oqti,
El-ulus hayron qoldi,
Bulutlar bir na'ra chekib, bir mangrab yurmoqdalar!*

Asarning ikkinchi qismi ikkiliklardan iborat bo'lib, ta'limiy-axloqiy mazmundagi mavzular quyidagi sarlavhalar ostida birlashtirilgan: 1. Nasihat; 2. Mehmon tutish to'g'risida; 3. Tarbiya to'g'risida; 4. Bir go'zal to'g'risida; 5. E'tiqodiy bir parcha; 6. O'g'linga nasihat; 7. Dunyodan shikoyat; 8. Sevgan bir kishi uchun; 9. Boylikni maqtaydi; 10. O'git; 11. Maqtanish; 12. Boylik to'g'risida; 13. Aldangan bir kishiga; 14. Ayrilish; 15. Diniy nasihat; 16. Mehmon to'g'risida; 17. Rohat to'g'risida. Bu qismdagi ba'zi bir ikkiliklar hajm jihatidan katta, ba'zi birlari esa faqatgina bir masnaviyning bir bandidan iborat, xolos. Olim manzumalarni tasnif qilar ekan, ularning qaysi davrga oid ekanligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Fitrat parchalarni tasniflar ekan, parchalar matnining nasriy bayoni va tushunilishi qiyin so'zlarning etimologik tahlilini keltiradi. Matn tarkibidagi har bir so'zning ma'no tadrijiga alohida e'tibor qilgan holda mazmunni belgilaydi. "Mumtoz adabiy manba ilmiy nashrining ishonchli va har tomonlama mukammalligini dastlab manba dunyoga kelgan davrdan to so'nggi nashrgacha davom etgan matn tarixini tiklash belgilaydi".⁵³ Fitrat "tikdag" so'zining ma'nosini aniqlashda bu so'zning asli "tildag" ekani, "Devonu lug'otit turk"ning 1-jildi 385-betida "bahona" ma'nosida ayni shu so'z ishlatilganini e'tirof etadi. Olim turkiy tillarning fonetik

⁵³ Зоҳидов Р. "Саботул ожизин" асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари; Фил.фан.д-ри ... дисс. – Т., 2018. – Б.11.

xususiyatidan kelib chiqib bir soʻzda “k” va “g” undoshining ishtirok etmasligini nazariy asoslab bu soʻz aslida oʻsha “bahona” maʼnosidagi “tildagʻ” soʻzi ekanligini aniqlaydi:

*Oʻkrayuku mundagʻ oʻq
Munda azin tikdagʻ oʻq...*

Nasriy bayoni:

*Uning (zamonaning) odati shundaydir
Boshqa bahonalari bor...*

deb maʼno bergan olim mazmuniy yaxlitlikni taʼminlab bergan.

Fitrat soʻz etimologiyasi, maʼno tadrijini aniqlashda “Devonu lugʻotit turk”ning barcha jildlaridagi ishlatilish oʻrinlariga eʼtibor qaratadi.

*“Takma chechak ukuldi,
Boʻqoqlanub bukuldi,
Toʻksin toʻkun tukuldi,
Yorgʻalimat yurkashur.*

Yorgʻalimat – yor+gʻali+mat. Yormoq uchun qanday.., biroq “yormoq” feʼlining bu oʻrinda munosib maʼnosi yoʻqdir. “Devonu lugʻot”ning ikkinchi jild 228-betida shul toʻrtlik yana yozilgʻan. Unda “yorgʻalimat” oʻrnida “yozilib yana” deyilgankim, “ochilib yana” demakdir. Shunga koʻra buni ham “yozgʻalimat - yoz +gʻali + mat” deb oʻqish lozim boʻladi”.⁵⁴ Fitrat parchalar matni ustida tadqiqot olib borar ekan, baʼzi oʻrinlarda asar muallifi M.Koshgʻariy bilan bahsga kirishadi.

*Qara tunuk kajursadim,
Agʻir uni uchursadim,
Yatikank qochursadim,
Saqish ichra kunum tugʻdi.⁵⁵*

toʻrtligidagi “saqish” soʻziga Koshgʻariy “sanamoq” deb maʼno bergan, Fitrat esa bu soʻzning “Devonu lugʻotit turk”da “xayollamoq” maʼnosidagi “soqimoq” feʼl shakli borligini koʻrsatib, oxirgi misraga “xayollar orasida ekanimda kun tugʻib qoldi” deb maʼno chiqargan.

*Uzu berib bushuttim,
Tovar, yullugʻ nashuttim,*

⁵⁴ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 28.

⁵⁵ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 44.

*Aran assin oshuttim,
Yukin barja o'zi jig'di.*

to'rtligining 3-misrasi Mahmud Koshg'ariy tomonidan "Boturlarning aybini yoshintirdim" shaklida nasriy bayon qilinadi. Biroq Fitrat "as" so'zi "Devonu lug'otit turk"ning 1-jildining 39-76-sahifalarida "o'laksa" ma'nosida kelganini asos qilib, Mahmud Koshg'ariy bergan "uyat, yomonlik" ma'nosini yanglish deb topib, "oshuttim"ni "oshatdim" o'qub, bu misrani "urushda o'lgan boturlarning o'luklarini yedirdim" deb tarjima qilardim"⁵⁶ deb izoh beradi. Bu kabi so'zlarning izohi majmuada juda ko'pchilikni tashkil etib, 700 dan ortiq so'zlar izohlanganini, tadqiqga tortilganini ko'rish mumkin.

"Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasining 3-qismi izohga muhtoj so'zlarning sharhiga bag'ishlangan lug'at qism bo'lib, olim bu qismda 130 ga so'zning izohini keltirgan. Qismning so'zboshisida bir qancha so'zlarning izohga muhtojligini, ularni matn ichida, o'z o'rnida izoh qilish maqsaddan uzoqlashtirishini, shuning uchun maxsus lug'at qismi tuzilganiligi ta'kidlangan. Lug'at qismdagi so'zlar etimologiyasini o'rganar ekan, ma'noviy tadrijiga e'tibor qaratgan holda "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "Muqaddimat ul-adab", 18-asrda yozilgan "Asmoil Og'a sayohatnomasi" kabi asarlar, "Abushqa", "Lug'ati chig'atoy" lug'atlaridagi ko'rinishlarini ham tahlilga tortadi. "Asiz – bizning bukun "esiz" deganimiz so'zdir. "Devonu lug'ot"ning ko'rsatkaniga ko'ra "yomon" demakdir. "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq"da ham har vaqt "ezgu" so'ziga qarshu ishlatiladur".⁵⁷ Olim lug'atning bir o'rnida "ukrimak" so'ziga izoh berarkan, bu so'zning chig'atoy o'zbekchasi "ukurmak" bo'lib, "harakat etdirmak" degan ma'noni anglatishini ta'kidlab, Amiriyning mashhur baytini namuna sifatida keltiradi.

*Lab ukur takallumga zulfini parishon qil,
Qand qiymatin sindir, narxi anbar arzon qil.*⁵⁸

Bayt mazmuniga diqqat qilinadigan bo'lsa, "lab takallum (kalom) qilish uchun harakatga kelishi" ma'nosini anglash mumkin.

⁵⁶ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 48.

⁵⁷ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 101.

⁵⁸ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 103.

Fitrat lug‘atning ko‘p o‘rinlarida N.Osimbek bilan munozaraga kirishadi. N.Osimbek “Hibat ul-haqoyiq” asarini nashr qildirgan bo‘lib, bu nashrdan Fitratning ko‘ngli to‘lmagan. Nashrdagi so‘zlarning o‘qilishi va izohidagi bir qancha xatoliklarni, kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tgan. “Ayiq” so‘zi izohlanar ekan, N.Osimbek bu so‘zga “aylamak, qilmoq” degan ma’no beradi. Fitrat esa bu so‘zning bosh tomiri “aymoq” ekanligini, “aytmoq” degan ma’noni anglatishini isbotlab beradi.⁵⁹

Fitrat o‘z asarida “Alb Erto‘nga” marsiyasiga keng to‘xtalib o‘tadi. Bu borada olimlar bilan bahsga ham kirishadi. “Devonu lug‘otit turk”dagi manzumalarni o‘rgangan olim F.Ko‘prulu “Alb Erto‘nga” marsiyasini 12 parcha deb e’tirof etadi. Fitrat esa bu fikrga qo‘shilmaydi: “... “Alb Erto‘nga” marsiyasini F.Ko‘pruluzoda o‘n iki parcha deb ko‘rsatadir. Menimcha, o‘n parchadir. Devonni(ng) ikkinchi jild, 105inchi betidagi bir parchani esa Erto‘nga marsiyasig‘a qo‘shushg‘a vazn va qofiya, mavzu’ musoada qilmaydir. Birinchi jildning 94inchi betidagi bilan uchunchi jildning 31inchi betidagi parchalar boshqa-boshqadir.”⁶⁰ Va fikrini dalillash maqsadida quyidagi to‘rtlikni keltirib o‘tadi:

*Yugurdi kafal ot,
Chaqildi qizil o‘t,
Kuyurdi arut o‘t,
Sachrab aning o‘rtanu.*

Fitrat “Alb Erto‘nga” marsiyasiga yaxlit asar sifatida yondashar ekan, Alb Erto‘nga shaxsiyatiga qiziqadi, “Alb Erto‘nga” so‘zining ma’nolarini keltiradi va marsiyaning yaratilish sabablarini izohlaydi.

Bugungi kunda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari qayta nashr etildi. Bu nashrlar A.Rustamov, H.Boltaboyev, B.Isabekov⁶¹ va Q.Sodiqov,⁶² tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, S.Mutallibov tarjimasida qayta nashrga tayyorlangan.

⁵⁹ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 103.

⁶⁰ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 32.

⁶¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) – Т.: МУМТОЗ СЎЗ, 2016.

⁶² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов) – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

FITRAT – LUG‘ATShUNOS

Fitratning lug‘atshunoslik faoliyati “Devonu lug‘otit turk” asarining tadqiqi bilan bevosita bog‘liq. O‘zR FAShIda “Devonu lug‘otit turk” asarining bir qancha toshbosma nusxalari mavjud bo‘lib, matbaa va nashr ishlari endi shakllana boshlayotgan bir davrda o‘zbek olimlarining “Devon”ni chuqurroq o‘rganishlariga zamin yaratgan. Toshbosmalarning aksariyati Istanbul nashri bo‘lib, Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi parchalarni ayni shu toshbosmalarga asoslanib taqdim qilgan. Inventar raqami 5201-3 bo‘lgan, 1914 –1916-yillarda nashr qilingan, 1106 sahifadan iborat toshbosma, 5206-3, 5204-5, 14345-47, 8999, 9000, 5206-8 inventar raqamli toshbosmalar, 20927 inventar raqamli hijriy 1333 yilda nashr qilingan, 20929 inventar raqamli hijriy 1335 yilda nashr qilingan litografiyalar Fitrat kabi olimlarni mumtoz namunalarni kitobxonga yetkazishga ilhomlantirgan. Shu o‘rinda dastlab “Devon” haqidagi tadqiqotlar tarixini o‘rganishda muhim bo‘lgan muallifi noma‘lum bir asar xususida to‘xtalib o‘tish lozim. Bu asarning mavjudligi haqda ilk bora J.Xudoyberdiev maqolasida ma‘lumot bergan edi. Kuzatishimizcha, O‘zR FAShIning Qo‘lyozmalar fondida 5046/1 inventar raqamli “Devonu lug‘ot” so‘zlari uchun fihris” sarlavhasi ostida bir qo‘lyozma saqlanadi. Har bir so‘z qaysi jildda, sahifada ekanligi ko‘rsatilgan. Arabcha nashrning birinchi jilddagi so‘zlar daftarning 1–57, ikkinchi jilddagi so‘zlar 59–62, 74–83 sahifalarda, uchinchi jilddagi so‘zlar esa 62 –66, 83 sahifalardan keyingi betlarda berilgan⁶³. “Devon” tadqiqotchilaridan H.Hasanovning fikricha, bu ko‘rsatkich 1924–1925 yillarda tuzilgan. Agar shu sana ilmda e‘tirof etiladigan bo‘lsa, bu qo‘lyozma adabiyotshunoslikda “Devon” bo‘yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug‘at hisoblanadi. Qo‘lyozma 3 ta yirik asarni o‘z tarkibiga olgan, 190 sahifadan iborat matn ichida berilgan. Qo‘lyozmadagi keyingi ikki asar Alisher Navoiyning “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari bo‘lib, bir-biridan farqli siyohlarda ko‘chirilgan. Tadqiqotchi A.Nosirov qo‘lyozmaning so‘nggi qismida “Devonu lug‘ot” so‘zlari uchun fihris”ni o‘rtoq Hanif 1963 yilda nashr qildirganini keltirib o‘tgan. Olim bu lug‘at

⁶³ Lug‘atdagi so‘zlar arab alifbosi asosidagi taqsimlangan. Bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlarning uchala jilddagi ishlatilgan o‘rinlari keltirilib, keyin keyingi harfga o‘tilgan.

Fitrat tomonidan tuzilgan deb taxmin qiladi, biroq noshir bu haqda hech qanday ma'lumot bermaganini keltirib o'tadi. Qo'lyozmaning 119-sahifasiga qadar qismi "Devonu lug'ot" so'zlari uchun fihrist" asari bo'lib, lug'at "Devonu lug'otit turk"ning har uch jildi uchun tuzilgan so'zliklardan iborat. Lug'atdagi so'zlar alifbo tartibida keltirilgan bo'lib, so'zlar "Devon..."ning nechanchi jild va qaysi sahifada ishlatilgani alohida qayd etib borilgan. Lug'atdagi tartib 1-, so'ng 2- va 3-jildda ishlatilgan so'zlardan iborat. Qo'lyozma oq muqova bilan qayta ta'mirlangan. "Vaqfiya" hamda "Munshaot" asarlari ko'chirilgan sahifalarning qo'lyozmaga birlashtirilgani sezilib turadi. "Devonu lug'ot" so'zlari uchun fihrist" asari ikki xil siyohda: asarning boshlang'ich qismidan tortib "lom" harfigacha bo'lgan sahifalar qora siyohda, keyingi sahifalardagi lug'at so'zlar to'q pushti siyohda ko'chirilgan. Sahifa ikki qismga ajratilib, so'zlar ustun shaklida nechanchi sahifada keltirilganlik raqami bilan tartiblangan. Hatto bir sahifaning o'zida bir necha marotaba ishlatilgan so'zlar ham alohida-alohida ko'chirilgan.

Kub [kub] كُب 85

Kib [kib] كِب 85

Kib [kib] كِب 85

Kuj [kuj] كُج 86

Kuj [kuj] كُج 86

Kuj [kuj] كُج 86

Kij [kij] كِج 86

Lug'atda so'zlarning ma'nosi keltirilmagan, ular shunchaki sanab o'tilgan, xolos. Qo'lyozma o'zbekcha nastaliq xatida ko'chirilgan bo'lib, qo'lyozmaning ba'zi o'rinlarida bo'sh sahifalar keltirilgan. Ana shunday sahifalarda lotin yozuvida "fitrat" so'zining yozilishi mashq qilingan. Bu esa ushbu lug'atning lotin yozuvi qabul qilinish arafasida tuzilgan, degan taxminni keltirib chiqaradi. Lug'at *be* harfidagi so'zlarni keltirish bilan boshlanadi. ب (*Be*), ت (*te*), ج (*jim*), خ (*xe*), ذ (*dol*), ز (*zol*), س (*sin*), ش (*shin*), غ (*g'e*), ق (*qof*), ك (*kof*), ل (*lom*), م (*mim*), ه (*hoye havvaz*), ا (*alif*), ي (*yo*) kabi harflar tartibida keltirilgan. Har bir harf alohida ajratilib, boshlanuvchi so'zlar avval 1-, so'ng 2- va 3-jildlarda ishlatilishiga qarab taqsimlangan. Lug'at:

خلد-ا, (Be)ب⁶⁴

Bat [bät] بت 26

Bit [bit] بت- 269

Bir [bir] بر- 271

Bis [bis] بس- 275

Biz [biz] بز- 273

Bush haliq [buş haliq] بُش حَلِيق 277

Bush [buş] بُش 277

Bakxank [bakxank] بَكْحَنْك 277

Buk [buk] بُك - 279

Buk [buk] بُك 279

Bul ot [böl āt] بُل ات- 281

Ban [bän] بِن- 283

Bart [bart] بَرْت- 286

Bart [bart] بَرْت 286

Burt tutti [bürt tötti] بُرْت تُتِّي 286

tarzida boshlangan. Qora siyohda ko‘chirilgan so‘zlarga to‘q pushti siyohda ba’zi o‘rinlarda qo‘shimchalar kiritilgan. Ba’zi so‘zlarning usti o‘chirilgan, tuzatilgan. 2-jildda ishlatilgan *be* harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarga ushbu qo‘shimchalar kiritilgan:

Biltindi [biltindi] (؟) بِلْتِنْدِي 202

Bilmindi [bilmindi] بِلْمِنْدِي 208

Burqimoq [bürkimāq] بُرْقِمَاق 272

Bilkazmoq [bilkazmāq] بِلْكَزْمَاق 274

Bo‘ynatmoq [bθynatmāq] بُوَيْنْتَمَاق 287

Buzmunhuq [bözmunhuq] بُزْمُنْحُق 287

Bu kabi qo‘shimchalar kiritish holati juda ko‘p uchraydi. *(te)*, harfiga oid so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda qo‘yidagi so‘zlar qo‘shimcha tarzda alohida ustunda kiritilgan:

Talimsandi [talimsandi] - تَلِمْسِنْدِي 206

Turumsandi [turumsandi] تُرْمَسِنْدِي

Tilimsindi [tilimsandi] تِلْمِسِنْدِي 208

Tuzg‘urumsindi [tuzg‘urumsindi] تُزْغُرْمَسِنْدِي 209

Titru [titru] تِتْرُ 235

Tasg‘anmoq [tasg‘anmāq] تَسْغَنْمَاق 272

⁶⁴ Bugungi alifbo va transkripsiya shakli qo‘shildi. Lug‘atdagi so‘zlar faqat arab yozuvi va betlardan iborat shaklda berilgan.

Tilqatmoq [tilqatmāq] تَلَقَّتَمَاق

Lug‘atning ba‘zi o‘rinlarida esa so‘zlar qalamda o‘chirilgan.

Natak [natak] نَتَاك 287

Najuk [najuk] نَجُوك 329

Nalun [nalun] نَلُون 329

Narak [narak] نَرَاك- 329

Mim harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda sahifa 4 ustunga bo‘lingan va juda qisqa masofalarda so‘zlar joylashtirilgan.

Lug‘atda so‘zlar jildlar asosida tartib bilan taqsimlanish bilan birga, ularning joylashishida turkumlari ham e‘tiborga olingan. Avval ot, sifat, ravish, olmosh turkumiga mansub so‘zlar keltirilsa, keyin fe‘lga oid so‘zlar joylashtirilgan.

Mom [mām] مَام 83

Mam [mam] مَم 84

Mun [mun] مُون 102

Manqishlarig‘ [manqışlarig‘] مَنَقِشَلَرِغْ 118

Manyashlig‘ qo‘y [manyashlig‘] مَنِشَلِغْ قُوِي 118

Mayaq [mayaq] مَيَاق 125.....

minkar [minkar] مَنَكْر 278

mankku [mankku] مَنَكُّو 280

munklug‘ or [munklug‘ ār] مَنَكْلُوغْ اَر 283

munkiz kak [munkiz kak] مَنَكْز كَاك 287

munkmak [munkmak] مَنَكْمَاك 290

munkuqmoq [munkuqmāq] مَنَكْوَقْمَاق 292

munkqarmoq [munkqarmāq] مَنَكْقَرْمَاق 294

mankdashmak [mankdashmak] مَنَكْدَشْمَاق 295

mankashmak [mankashmak] مَنَكْشَاق 295

tarzida keltiriladi. Bu tartib lug‘atning oxiriga qadar saqlangan.

Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning joylashishi, ishlatilishi, tanlanishi uslubi lug‘at Fitrat tomonidan tuzilganligidan dalolat beradi. Bu holat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining lug‘at qismini ushbu qo‘lyozma bilan solishtirganimizda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini 3 qismga ajratgan bo‘lib, majmuaning 3-qismi maxsus lug‘atdan iborat. Fitrat lug‘at qismda keltirilgan so‘zlarni “Devonu lug‘otit turk” bilan yaqin davrlarda yaratilgan “Qutudg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlardagi variantdoshlari misolida “Muqadimmat ul-adab” kabi

lugʻatlardan foydalangan holda maʼnosini izohlashga harakat qilgan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari nashrini amalga oshirgan Najib Osim yoʻl qoʻygan xatoliklarni “Devonu lugʻotit turk” asari tarkibidagi soʻzlar misolida isbotlagan. “Savamoq – *Tamom boʻlmoq, sob boʻlmak. Bitmak.* Buning tomuri “savdirkim: *masal, hikoyat, soʻz, xabar* maʼnolaridadir. *Xabar, soʻz, hikoyatning* tarqalib turishi munosabati bilan boʻlsa kerak, “tarqalib bitmak” maʼnolarida *savranmoq, savramoq*; “bitirmak” maʼnosida *savritmoq* soʻzlari boʻlgʻani kabi

Balak ettim ani shahmgʻa manunk

Havodorligʻimni tugal bilsutib (bilsun deb)

(“Hibat ul-haqoyiq” birinchi qism, 30 nchi bet)

Bundagi “balak” soʻzini Najib Osimbek “alomat, nishon” deb tarjima qiladir, yanglishadur. “Tarqalmoq” maʼnosida *savrulmoq* soʻzi bordir. Bukun bizda boʻlgʻan “savirmoq” ham “sovchi” soʻzida shu tomirdandir”.⁶⁵

Majmuaning lugʻat qismida 126 ta soʻz keltirilgan boʻlib, olim har bir soʻzning etimologiyasini keltirish bilan birga ayni shu soʻzlar qoʻllangan misralardan namunalar ham keltiradi. Baʼzi oʻrinlarda soʻzlarning morfem tahlilini ham amalga oshiradi. “Kislinmak – kis+il+in+mak. Oʻz-oʻzidan kesilmak”.⁶⁶ Majmuadagi “Lugʻat” qism izohli lugʻat shaklida boʻlib, soʻzlarning maʼnosini ochib berishga xizmat qilgan. “Devon” soʻzlari uchun fihrist” lugʻat esa indeks lugʻat shaklida boʻlib, “Devon”da ishlatilgan soʻzlar keltirilgan, xolos. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini tuzgandan soʻng “Devonu lugʻotit turk” asari uchun maxsus fihrist tuzishni maqsad qilgan. Soʻzlarning oʻqilishi, yozilishi, ayniqsa, feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlarning keltirilish uslubi, *-mak* va *-moq* qoʻshimchalarining soʻzlarning oʻzagiga qarab taqsimlanishi Fitratning ishlash uslubini eslatadi. Undan tashqari, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asaridagi lugʻat qismidagi soʻzlarning tartibi “Devonu lugʻot” soʻzlari uchun fihrist”dagi tartibga mos tushadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarida barcha soʻzlarni keltirmay, ularning baʼzilarinigina saralab olgan. “Devonu lugʻot”

⁶⁵ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. (Нашрга тайёрловчи Хамроева О) – Т.: МУМТОЗ СЎЗ, 2008. – Б. 108.

⁶⁶ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б.111.

soʻzlari uchun fihrist”da esa 8 mingtacha soʻz keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, “Devon” soʻzlari uchun fihrist” Fitrat tomonidan 1928–1929 yillar oraligʻida, lotin yozuviga oʻtish arafasida, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi yaratilganidan soʻng tuzilgan. Bu lugʻat olimning jiddiy tadqiqotlaridan biri boʻlib, “Devonu lugʻotit turk” tarkibidagi parchalar davri, soʻzlarning etimologiyasini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FITRAT – MANBASHUNOS

Jadidchilik harakat nafaqat ijtimoiy harakat sifatida, balki ilm va ma'rifatdagi yangilanish sifatida ham adabiyotshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimi, adabiy tur va janrlar, matnshunoslik va manbashunoslik sohalarining yangilanishi bevosita dunyo ta'lim tizimi va ilmidagi taraqqiyotni ko'rgan va bu yangiliklarni o'z yurtiga olib kirishga harakat qilgan Fitrat harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. XX asr boshlarida vujudga kelgan o'zbek matnshunosligi va manbashunosligining shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgan Fitrat adabiy majmualarining o'rganilishi orqali mazkur soha taraqqiyotidagi olimning faoliyati va uning amaliy natijalari ko'rish mumkin. Sir emaski, XX asr boshlarida adabiyot tarixini o'rganish dastlabki bosqichda edi. Milliy adabiyotimiz tarixiy taraqqiyotini o'rganish uchun qat'iy qonuniyatlar yaratish olimlarimiz zimmasidagi eng katta vazifalardan biri bo'lgan. Tabiiyki, bu yo'lda qardosh turkiy xalqlar: usmonli turk, tatar, ozarbayjon olimlarining tajribasi kerak edi. Biroq deyarli barcha turkiy xalqlarda izchil ilmiy asosga ega adabiyotning yaratilishi asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. F.Ko'pruluning "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar"⁶⁷, "Turk adabiyoti tarixi"⁶⁸, ayni shu yo'nalishda Ismoil Hikmatning "Turk adabiyoti tarixi"⁶⁹, "Ozarbayjon adabiyoti tarixi"⁷⁰, A.Rahim, A.Azizlarning "Totor adabiyoti tarixi"⁷¹ Abdurahmon Sa'diyning "Totor adabiyoti tarixi"⁷² asarlari, bu boradagi turk, ozarbayjon va tatar olimlarining erishgan natijalari Fitratni ilhomlantirgan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixini yaratish uchun asos bo'lgan ilmiy tamoyillar, majmua va darsliklar tuzilishiga ehtiyoj mavjudligi Fitrat tomonidan o'zbek adabiyoti tarixi uchun materiallar to'planishi, ularning xronologik tartibda izchil ilmiy tizimga solinishi va nashrga tayyorlanishiga sabab bo'lgan. Nazariy manbalarga ehtiyoj mavjudligi tufayli majmualar so'zboshilarida va har bir bo'lim

⁶⁷ Ahmad Yassaviy va uning maktabi tarixini yoritish bilan cheklangan. Ilk nashri 1918 yil.

⁶⁸ XVI asrgacha bo'lgan davr bilan chegaralangan. (1-jild). 1926

⁶⁹ Ocherklardan iborat bo'lib, usmonli turklarning XIX asrgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi, 1925.

⁷⁰ Ikki jilddan iborat bo'lib, 1928 yilda tartib berilgan.

⁷¹ Раҳим А., Азиз А. Тотор адабиёти тарихи. Феодализм даври. – Қозон., 1923.

⁷² Саъдий А. Тотор адабиёти тарихи. – Қозон., 1926.

oldidan keltirilgan nazariy ma'lumot va uqtirish xatlarida va ilmiy risolalarida adabiyot tarixini davrlashtirishga oid qarashlarni ifodalagan. Fitratning bu yo'ldagi eng katta xizmati majmualarida muallif qo'l ostida bo'lgan qo'lyozma matnlarni o'z zamonida ommaviy nusxalarda tarqa-tilgan toshbosmalar bilan solishtirgan holda nashrga tayyorlagani edi. "Fitratning matnshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi uning sof tekstologik tadqiqotlarida ko'rinadi".⁷³ Olimning majmualar tarkibidagi har bir asar ustida jiddiy tadqiqot olib borgani majmualarning so'zboshi, uqtirish xatlarida, ilmiy-nazariy maqolalarida aks etgan⁷⁴. Manba va matnlarning chuqur o'rganilishi asar xususida to'g'ri hukm chiqarishga sabab bo'ladi. "Nazariy umumlashmalar bilan yaxshi ta'minlanganlik amaliy faoliyatning har qanday sharoitida ham yo'l topib ketish imkonini beradi"⁷⁵. Abdurauf Fitratning bu yo'ldagi izlanishlari "Eng eski turk adabiyoti namunalari" va "O'zbek adabiyoti namunalari" majmualarida aks etgan. Bu ikki majmua o'zbek adabiyotida yaratilgan ilk adabiy to'plamlar sanalsa-da, ular tarkibida olimning ilmiy qarashlari ham o'z aksini topgan.

Tahlilga tortmoqchi bo'lgan manbalarimizdan biri Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari bo'lib, Fitrat bu asarni birinchilardan bo'lib, ilmga taqdim qildi, "O'zbek adabiyoti numanalari" majmuasida parchalar e'lon qildi, mavjud nusxalar bilan solishtirdi. Bu asarning nusxalari ko'p bo'lib, biz Fitrat e'tibor qaratgan, Turkiyda tahsil olayotgan paytda xabardor bo'lgan nusxaga e'tibor qaratmoqchimiz. Asarning bu nusxasi 1480 yilda Istanbulda Shayxzoda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko'chirilgan. Nusxadagi

⁷³ Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т.: Академнашр, 2015. – Б.56.

⁷⁴ Фитрат. Кутадғу билиг // Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.11-16; Ҳибат ул-ҳақойиқ. // Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 45–55; Аҳмад Яссавий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.17–31; Аҳмад Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.31–37; Чигатоё адабиёти. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.37–45; ХВИ асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.55–61; "Фарҳод ва Ширин" достони тўғрисида. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.105–134; Навоийнинг форсий шоирлиги ҳам унинг форсий девони тўғрисида. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.3–11.

⁷⁵ Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Т., 2012. – Б. 51.

matnlarning ba'zilarini uyg'ur, ba'zilarini arab yozuvi shaklida berilgan. Nusxa 74 betdan iborat bo'lib, 2-69-betgacha "Hibat ul-haqoyiq" asari keltirilgan. Asarning hajmi 255 bayt, 241-asosiy qism, 14-bayt – ilova. Ushbu kitobda "Hibat ul-haqoyiq"dan tashqari Lutfiy, Sakkokiy kabi ijodkorlarning asarlaridan namunalar ham berilgan. Fitrat "Hibat ul-haqoyiq" nomli maqolasida ayni shu nusxa xususida atroflicha fikr yuritadi. Fitratning bu nusxaga e'tibor qaratishining asosiy sababi turk olimi Najib Osimbekning "Hibat ul-haqoyiq"ning shu nusxasi asosidagi nashri bo'ldi. Bu nashrlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida 1773, 1774, 10724, 12023, 20941 raqamlari ostida saqlanadi. 1773 raqami ostidagi toshbosma 1915 yil Istanbulda usmonli uyg'ur tilida nashr qilingan. 1914 yil Najib Osim Istanbulda Ayo Sofiya masjidi kutubxonasidan mo'g'ulcha risola topib oladi⁷⁶. Bu risola Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari bo'lib, asarning to'liq matni, izohi va lug'at qismi bilan birga 1915 yil nashr qildiradi. Nashr so'ngida Najib Osim asar uchun "So'ngso'z" keltirib, unda asarni sharh qilganini izohlaydi: "Bizim burada ko'satirajakmiz "Sarf" anjoq "Hibat ul-haqoyiq"da ko'rdikimiz kalmalarak shakliga oiddir"⁷⁷. 20941 inventar raqamli litografiya esa 1916 yilda bosilgan. Fitrat bu nashrning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilar ekan, maqolaning juda ko'p o'rinlarida nashrdagi kamchiliklarni birma-bir qayd qilib o'tadi. Olimning ta'kidlashicha, Najib Osimbek nusxadagi matnlarni qaytadan o'qigan, tarjima qilgan, lug'atlarini izoh qilgan, maxsus lug'at qism ham qo'shgan. Najib Osimbek nashrning so'zboshisida asar va uning muallifi to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tadi. Fitrat bu nashrning lug'at qismini qattiq tanqid ostiga olgan. Xato o'qilgan so'zlarni birma-bir keltirib o'tgan. Olim Najib Osimbekning bunday xatoga yo'l qo'yganining sababini "Devonu lug'otit turk" asarining nashridan foydalanmaganligida deb ko'rsatadi. "... Najib Osimbek buning lug'atlarini izoh qilg'anda "Devon(i) lug'ot"ga murojaat qilmag'ang'a o'xshaydir. Chunki Najib Osimbekning bu to'g'rida u qadar yanglishlari bo'lg'anki, xususan, "Devon(i) lug'ot" maydong'a chiqqandan keyin bir til olimining bu qadar xato qilishi mumkin

⁷⁶ Юсупов Б. Хибат ул-хақойик // Фан ва турмуш, 1982. – 3-сон.

⁷⁷ Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. 1773 inventar raqamli toshbosma. [10724, 1774, 12023, 20941 inventar raqamli toshbosmalar]

emasdir”⁷⁸. Maqolada Fitrat 15 xato o‘qilgan so‘zni keltirib, ularning to‘g‘ri shaklini dalillar asosida berib o‘tadi. Maqola so‘ngida esa bu kabi xatoliklar ko‘pligini ularning ayrimlarinigina keltirganini ta’kidlaydi.

Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga keng o‘rin ajratgan. Namunalarni taqdim qilar ekan, Turkiyadagi nashrlarni ham e’tiborda chetda qoldirmagan. Fitrat foydalangan manbani aniqlash maqsadi bilan Bobur asarlarini Fitratga qadar (A.N.Samoylovichdan tashqari) nashrga tayyorlangan manbalardan o‘rganish maqsadida turk olimi Fuod Ko‘prulu tomonidan “Milliy tatabbu’lar” majmuasida chop qilingan Bobur g‘azallaridan berilgan namunalarga murojaat etdik. Bu manba boburshunoslikda “Istanbul nashri” nomi bilan tilga olinib, uning 1913 yilda nashr etilgan. Bu majmuaning nashr etilgan yili borasidagi H.Boltaboev “Boburshoh Fitrat talqinida” maqolasida aniqlik kiritgan⁷⁹. Fitrat majmua nashr ettirilgan davrda Fitrat Istanbulda tahsilni davom ettirayotgan bo‘lib, Fuod Ko‘prulu, Mehmed Akif, Abdurashid Ibrohim kabi turk olimlari bilan uchrashgan, ular bilan fikr almashgan. “Milliy tatabbu’lar”da nashr etilgan Boburning she’rlaridan xabardor bo‘lgan bo‘lishi kerak. O‘zR FASHI Qo‘lyozmalar fondining toshbosmalar bo‘limida Bobur she’rlari jamlangan bir qancha nashrlar mavjud. 8814 inventar raqami ostida saqlanayotgan katta hajmdagi nashrda Boburning she’rlari keltirilgan bo‘lib, “Boburshohning she’rlari” sarlavhasi ostida berilgan. Biz yuqorida ta’kidlagan “Istanbul nashri” ayni shu nashr hisoblanadi. Toshbosmada Boburning she’rlari bilan birga “Volidiya” asari ham keltirilgan bo‘lib, 1914 yilda nashr qilingan. Toshbosma tarkibida “Milliy tatabbu’lar” majmuasi, “Turk adabiyoti mansha’i”, “Arznoma. Onado‘lida turk madaniyati”, “Kitobiyot” kabi asarlar keltirilgan. Toshbosma Fuod Ko‘prulu asarlaridan tarkib topgan. Bobur she’rlari toshbosmaning turli o‘rinlarida keladi. 235-256-bet, 308-246-bet, 465-480-betgacha Bobur she’rlari keltirilsa, oradagi sahifalarda yuqorida keltirilgan asarlar berilgan. Asarlar ketma-ketlikda avval g‘azal, undan keyin masnaviy, ruboiy, muammolar

⁷⁸ Фитрат. Хибатул ҳақойиқ // Маориф ва ўқитғучи. – 1928. – 10-сон. – Б. 41-6.

⁷⁹ Болтабоев Х. Бобуршоҳ Фитрат талқинида / Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 127.

keltirilgan. Faqat “Volidiya” asari nashrning so‘nggi qismida keltirilgan. “Boburshoh she‘rlari” qismi Boburning “Topmadim” radifli g‘azali bilan boshlanadi. Fitratning majmuasidagi matnlar ham aynan shu g‘azal bilan boshlangan. Ikki manbada ham g‘azal va ruboiylar ketma-ketligi bir xil bo‘lib, ularga tartib raqam qo‘yilmagan. Manbalar matni, baytlar, misralar ketma-ketligi, so‘zlarning o‘qilishida farqli jihatlar aniqlanmadi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” uchun Bobur g‘azallarini tanlab olayotganda, dastlab tayanch manbalar sifatida A.N.Samoylovich nashriga asoslangan. Keyinroq undagi tartib buzilgani va to‘la emasligi anglashilgach, qolgan holda g‘azalni Rampur qo‘lyozmasi asosida chop ettirilgan “Istanbul nashri” dan olgani ma‘lum bo‘ladi. Majmuadagi matnlarni turli manbalardan olib to‘ldirganidan anglashiladiki, Fitratning qo‘lida Bobur “Devon”ining birorta qo‘lyozma nusxasi bo‘lmagan. Chunki Fitratning qo‘lida agar Bobur “Devon”i bo‘lganida, birinchidan, o‘zi bu haqda biror qaydni keltirgan bo‘lard, ikkinchidan esa, A.N.Samoylovich va Fuod Ko‘prulu nashrlaridan tanlab olish natijasida o‘z majmuasini “to‘ldirib” o‘tirmay, to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘lyozma manbaga murojaat etgan bo‘lar edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat o‘z davrining yirik matnshunos va manbashunosi sifatida noyob qo‘lyozmalarni ilm ahli va xalqqa tanishtirishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Xalq qo‘lidagi saqlanayotgan noyob manbalarni olib ketilishini oldini olish maqsadida manbalar xususida maqola tayyorlab, nashr qildirgan. Va natijada bir qancha mumtoz asarlarimizning qo‘lyozma nusxalari olib qolingan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” va Poshshoxo‘janing “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining qo‘lyozma nusxalari shular jumlasidandir.

QADIMGI DAVR MANBALARI TADQIQOTCHISI

O‘rxun-Yenisey bitiktoshlari “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasi-ning “feodallik davri adabiyoti” qismidan o‘rin olgan. Feodallik davri adabiyoti haqida Fitrat shunday yozadi: “Bu davrning dostonlari voqealarni har vaqt katta feodallar tegrasida yurguzib, shu munosabat bilan ularni maxtaydirlar”⁸⁰. Olim feodallik davrining ilk namunasi sifatida berilayotgan O‘rxun-Yenisey bitiktoshlaridan biri “Kultegin” yodnomasidan parcha keltirib, uning sababini quyidagicha izohlaydi: “Bu davrning bizga eson-omon kelgan eng burung‘i namunasi Yenisey O‘rxunda topilgan toshbitiklaridirkim, eng muhimlari milodiy oltinchi asrda ulug‘ bir davlat qurg‘an Tukyuturklarining sakkizinchi asrdagi xonlari Bilka qoon bilan uning inisi Kulteginning yodnomalaridir. Men bu kitobda feodalliq davrining birinchi namunasi etib, “Kultegin” yodnomasidan bir bo‘lagini xulosa qilib oldim”⁸¹. Demak, “Kultegin” yodnomasini boshqa bitiktoshlarga nisbatan muhimroq deb bilgan. Majmuada keltirilgan parchalar u qadar katta hajmga ega bo‘lmasa-da, toshbitikning asl mohiyatini ochib beruvchi matnlar tanlab olingan. Bugungi kunda O‘rxun-Yenisey yodgorliklari turli manbalarda nashr etilgani ma‘lum. O‘rxun-Yenisey yozuvidagi yodgorliklar qadimgi turkiy adabiyotning alohida bir qatlami sifatida turkiyshunoslikda, o‘zbek adabiyotida nisbatan kam o‘rganilgan. Adabiyotshunos olim N.Rahmonovning toshbitiklar matni borasidagi izlanishlari bu soha rivojida jiddiy tadqiqot bo‘ldi.⁸² Fitrat qadimgi turkiy yodnomalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘lab o‘rgangan. Chunki olim xalq eposlariga turkiy yodnomalar bilan bir zaminda vujudga kelgan adabiyot sifatida qaraydi. Epos zamiridagi syujet, badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi yodnomalarda ham aks etgan. Ulardagi tasvir yo‘sini ham bir-biriga yaqin. O‘rxun-Yenisey obidalari tadqiqotchilari bu o‘xshashlikni an’anaviy 3 qismdan iborat bo‘lgan bayon qilish usuli bilan bog‘lab tushuntiradilar. Ular: boshlanma,

⁸⁰ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева) -Т., 2013. – Б. 32.

⁸¹ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд(Нашрга тайёрловчи О.Хамроева)-Т., 2013. – Б. 32.

⁸² Раҳмонов Н. Ўрхун-Енисей ёдномалари ва туркий эпослар: Фил.фан.д-ри ... дисс. – Т., 1991. – 293 б.

voqealar rivoji (mazmun taraqqiyoti) va tugallanmadan iborat⁸³. Bu xususiyat turkiy yodnomalarning o‘zida aks etgan. “Kultegin” (731 y.), “Bilga xoqon” (735 y.), “To‘nyuqo‘q” (716 y.) yodnomalaridagi bu xususiyatni ilk marta olimlar V.Tomson, P.Melioranskiy va P.Falyov aniqlagan edilar. P.Melioranskiy “Kultegin” yodnomasiga bag‘ishlangan asarida “yodnomalardagi ko‘tarinki ruh eposlar mahsulidir”, degan fikrni aytgan. Bunday tasvir matnda quyidagicha o‘z aksini topgan: Uza kök tangri asra yag‘ыз yar қылынтуқта akin arsa kisi og‘лы қылынмыс. Kisi og‘лынта uza achum apam Bomyн qag‘an, Istami qag‘an olurмыс. Olurғыpan, turk bodunын alin, torusin tuta birmis, itu birmis (Yuqorida ko‘k osmon, ostida qoramtil yer qiling‘anda ikisi aro odam bolasi paydo bo‘lg‘an Odam bolasida ulug‘ bobom Bumin xoqon Istami xoqon bo‘lg‘an ekan. Bo‘lib turk qavmining elini, qonunini tutib yaxshilatib borg‘an)⁸⁴. Bu matnda osmonning hamda insoniyatning yaratilishi – *boshlanish*, Bo‘min va Istami xoqonlar faoliyati – *voqealar rivoji* va qonun-qoidalarga rioya qilish *tugallanmadir*.

Kultegin bitiktoshi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism kichik bitik, ikkinchi qism ulug‘ bitikdir. Fitrat o‘z majmuasida “Kultegin” bitiktoshining ulug‘ bitik qismidagi qahramon jasoratiga e’tibor beradi. “Kultegin” bitiktoshi 1889 yilda buyuk turkiyshunos olim N.M.Yadrinsev tomonidan topilgan. Qalinligi 41 *sm*, balandligi 3 *m* 15 *sm*, kengligi tub qismida 1 *m* 24 *sm* bo‘lib, yuqoriga qarab torayib borgan. Ulug‘ bitikning boshlanish qismini *madh* deb aytish mumkin. Chunki bu qismda turkiy xoqonlar, ularning jasorati madh etiladi. Xususan, Bumin va Istami xoqonlar madhiga keng o‘rin ajratilgan. Olim majmuada ulug‘ bitikdan namunalar keltirar ekan, ularning tarjimasini ham berib o‘tgan. Fitrat majmuani tuzgan paytida O‘rxun-Yenisey bitiktoshlari xususida adabiy jamoatchilik ma’lumotga ega emas edi. Bu davrda o‘zbek tilida yozilgan bitiktoshlarga tegishli biror maqolani ham uchratmaymiz. Shuning uchun olim majmuada bitiktoshlarning transkripsion shaklini emas, faqat matndan parcha berib, uning mazmunini bayon qilish bilan cheklanadi. Fitrat o‘z majmuasini ilmiy asar sifatida emas, keng

⁸³ Masalan, I.V.Stebleva.

² Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Ҳамроева) -Т., 2013. – Б.35.

ommaga mo‘ljallangan to‘plam tarzida tuzgani sababli undan badiiy asar sifatida namunalar keltiradi.

Majmuada keltirilgan namunalar ulug‘ bitikning boshlanishidan izchil davom etgan matnlar emas, balki toshbitikning turli o‘rinlaridan yig‘ib olingan parchalardir. Ularning boshlanishi ulug‘ bitikning boshlang‘ich ikki namunasi, keyingilari o‘n birinchi va o‘n ikkinchi parchalardir. Parchalarning tarjimasi boshqa manbalardagi tarjimalardan keskin farq qilmaydi. Matnlardagi tarjimalar ma‘no jihatdan farq qilmasa-da, so‘zlarning qo‘llanishida juz‘iy tafovutlar uchraydi. Tadqiqotchi A.Abdurahmonov “Turkiy adabiyotning qadimgi davri” asarida matnni she‘riy shaklda tarjima qilgan⁸⁵. Prof. N.Rahmonovning “Ruhiyatdagi nur murodi”⁸⁶, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamovning “Qadimgi turkiy til”⁸⁷ qo‘llanmalarida “Kultegin” bitiktoshining tarjimasi o‘zaro bir xil. Biroq bu tarjimalar bilan Fitrat majmuasida keltirilgan tarjimalar o‘rtasida biroz farq bor. Xususan, *“boshi borni egib, ta‘zim qildirdi, tizzasi borni cho‘kkaladi”* jumalari Fitratning majmuasida *“boshliqni buktirgan, tiralikni cho‘ktirgan”* shaklida berilgan. Ko‘rinadiki, Fitrat bitiktoshlarni so‘zma-so‘z emas, balki erkin tarjima qilgan. *“Oqangim qog‘on buncha qirq ortug‘i yati yo‘li sulamish, yigirmi so‘ngu so‘ngumish.* Tarjimasi: *Otam xoqon shuncha 47 yo‘la qo‘shun tortib, yigirma yo‘la urushg‘an”*⁸⁸. Fitrat matn tarjimasiga ijodiy yondashib, ularning badiiyligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Buning bilan cheklanmagan olim ular uchun maxsus lug‘at tuzgan va so‘zboshida parchalarning qisman tahlilini bergan.

O‘rxun-Yenisey obidalaridan keyingi namuna sifatida “Chistoni (y) Elig begining hikoyasi” asaridan parcha keltiradi. Hikoya janrida yozilgan ushbu asarning yozilishi xususida olim “O‘zbek adabiyoti namunalari”ning so‘zboshisida ma‘lumot bergan. Unga ko‘ra, “chistoni” so‘zidagi *ch, s* orasida unli (cho‘zg‘i) bo‘lmaganligi bois bu so‘zni qanday o‘qilishi noma‘lum. Bu hikoyani ilmiy muomalaga kiritgan fon Laquq bu so‘zni “chastoni” deb o‘qigan. Olimning o‘zi

¹ Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

² Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ нашриёти мероси, 2002.

³ Абдурахмонов Ф. Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982.

⁸⁸ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева) -Т., 2013.– Б.35.

esa bu soʻzning oʻqilishi noaniq boʻlganligi bois *ch* va *s* harflari qanday yozilgan boʻlsa, ularni ayni shu shaklda beradi. Fitrat majmuada hikoyaning topilishi haqida maʼlumot berib, 1902 yildan boshlab Sharqiy Turkistonga olmon mustashriqlari tomonidan Hut, fon Laquq, Ishteyn kabi olimlar rahbarligidagi ilmiy ekspeditsiya paytida topilganini maʼlum qiladi. Bu manba Sharqiy Turkiston hududidan bir qancha rasmlar, naqshlar, uygʻur yozuvida bitilgan qoʻlyozmalar bilan birga topilgan va ular Germaniyaga olib ketilgan. Bugungi kunda ular Olmoniyadagi kutubxona va muzeylarda saqlanmoqda. Qoʻlyozmaning mazmun-mohiyati diniy asarlarga yaqinroq turadi. “Bu qoʻlyozu(v)larning hammasi tekshirilmagan boʻlsa ham, koʻbraki buddizm ham, moniyliqqa oid diniy asarlar, duolardan iborat ekani gumon qilinadi”⁸⁹. Chuqurroq oʻrganmoqchi boʻlganimiz “Chistoni(y) Elig begining hikoyasi” fon Laquq tomonidan oʻqilib, nashr ettirilgan, keyinchalik usmonlichaga koʻchirilgan. Hikoya VIII asrdan keyin yaratilgani belgilangan. Bu masalani aniqlashtirish uchun Fitrat kichik tadqiqot olib borgan. Asar matni va tilini Oʻrxun-Yenisey yodgorliklari tili bilan solishtirgan. Qiyoslash natijasida hikoyaning tili toshbitiklar tiliga nisbatan yengilligi aniqlangan. Shunga asoslanib olim hikoyani VIII-IX asrga oid deb belgilagan.

“Chistoni(y) Elig begining hikoyasi”ning syujeti, roʻy bergan voqealari tizimida qabilaviy muhit aks etgani uchun olim asarni qabilaviy davr adabiyotining nodir namunasi deb baholaydi. Hikoyaning qisqa voqeasi shunday: bir qabilaga oʻlat tushadi, oʻlat sababchilari ajinalar ekani aniqlanadi. Qabila boshligʻi oʻz xalqini undan qutqarish, ajinalarni yoʻq qilish maqsadida jangga oʻtlanadi. Voqealar rivoji jarayonida qabila boshligʻi va ajinalar oʻrtasida bahs-munozaralar ham boʻlib oʻtadi. Ajinalar tasviri mohirona chizilgan boʻlib, ularning tashqi qiyofasi orqali ichki dunyosining qanday ekanligi ifoda qilingan.

⁸⁹ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева)-Т., 2013. – Б.11.

Ul yima⁹⁰ yaklar
yalinguq⁹¹larning atin yeyu, qanin
ichib, bag‘or suqlarin
atuz⁹²laringa yo‘rga yurlar arti.

Qo‘rqg‘u-tak ko‘rk, mangiz
tutubyov-laq qatig‘⁹³ unin
qiyqirusu⁹⁴ dirzul, bodruq⁹⁵
eliglarinta tutub qap-qara, ulug‘,
baduk tog‘ - tak atuzinunayu⁹⁶ o‘t
o‘ngluk⁹⁷ eshin⁹⁸ sochlarin angin-
larinta⁹⁹ tushurub, og‘ulug‘
yilanina turlarin itinib¹⁰⁰
yaranib¹⁰¹ qov¹⁰² boltir soyu
yuriyur arti.

Hikoyadagi voqealar jarayonida ajinalar qabila boshlig‘ining yolg‘izligini ko‘rib turli so‘zlar bilan haqorat qiladilar. Dushmanni yolg‘iz deb mensimaslik holati boshqa folklor matnlaridagi kabi ushbu asarda ham aks etgan:

Ay, kimsan? Naguluk kattu
o‘zung uk bizning ustun oltin
tov¹⁰³ tashimizga yuqi bo‘lg‘ali
kaltin?!

*Ul ajinalar insonlarning etin
yeb, qonin ichib, ichaklarin o‘z
gavdalariga o‘rab olar erdilar.*

*Qo‘rqg‘u-dek chiroy, yuz tutib
juda-yam qattig‘ tovish bilan
qichqirishib, yaroqlarini
qo‘llarig‘a olib, gavdalarini
yuqorilatib, o‘t tushli qop-qora,
ulug‘, buyuk tog‘-dek u muzdaki
sochlarini eginiga tushurub
og‘uli yilon gavdasi bilan
surunib, yalqovlanib yaqin tog‘
boshida(?) yurar edi.*

*Ay, kimsan? Yolg‘uz o‘zing
bizning kuchli ost-ust
tishlarimizga yo‘q bo‘lmoq
uchun qanday kelding?!*

Qabila boshlig‘ining tasviri orqali biz uni qanchalik kuchli, o‘z xalqini asrash uchun har narsaga qodir shaxs sifatida tasavvur qilamiz.

⁹⁰ Yima – yana. Qov – “Devoni lug‘at”da yaqin ma’nosida “qib” bor.

⁹¹ Yalinguq – inson.

⁹² Atuz – gavda.

⁹³ Ovlaq so‘zi “yomon” ma’nosida bo‘lsa ham “qattig‘” so‘zi bilan kelganda shuning “oshirma”si bo‘lg‘anini “Devoni lug‘at” yozadir.

⁹⁴ “Qiyqirishu” bo‘lmasun?

⁹⁵ Dirzul, bodruq – anglayolmadim. Aroq ekani ma’lum.

⁹⁶ Unayu – ko‘tarib. Undur so‘zidandir.

⁹⁷ O‘ng – tus, rang.

⁹⁸ Eshin – “Devoni lug‘at”da umuz – bilka ma’nosida “ushun” so‘zi bor, shunga ko‘ra ma’no berdim.

⁹⁹ Angin - bizning “egin” deganimiz bo‘lsa kerak.

¹⁰⁰ Itinib – surunib.

¹⁰¹ Yaranib – yalqovlanib. (“Devoni lug‘ot” j.2, b. 254)

¹⁰² Qov – “Devoni lug‘at”da yaqin ma’nosida “qib” bor.

¹⁰³ Tov – kuchli, kuch.

Oni ko‘rup chistoni elig bagi yurakin qatrunub to‘ngalar¹⁰⁴ bak tak “Kishotrik yaklar”¹⁰⁵ mangiz manglab¹⁰⁶ qo‘rqinjsiz, ayanjsiz ko‘nglin ul yaklar orasinta kirub bordi.

Qabila boshlig‘i ajinalar boshlig‘ini bir ko‘tarishda halok qilganini ko‘rgan ajinalar bekni mazax qilganligi noto‘g‘ri ekanini tushunib, yalina boshlaydilar. Chistoni(y) Elig begini madh qilishga tushadilar:

O‘tru chistoni Elikbak bor kuchin o‘nturub, tulukin sakriyu, borip “Uru-muki” otlig‘ yakning tupusintaki sochin torta tutup qilichin ura ko‘turup boshin bichg‘ali urup.

Anta o‘q ul yaklar chistoniy elikning kuchin, ko‘suning cho‘g‘in (tovish) yali (nin) qutin, quvin ko‘rub ortuqroq qo‘rqtilar.

O‘zilarin o‘surup elig bagiga inchatip tedilar:

Yalinguqlarning arsloni, eliklar, baklarning qut tangrisi – o, “Yarla-qanchuhi ko‘ngul o‘rtip ko‘ngulugin suzki”.

Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida hikoyaning asl matnini keltirish bilan birga, nasriy bayonini ham berib o‘tadi. Hikoya tarjimasi olimning o‘ziga tegishli bo‘lib, matndagi tushunarsiz, izohtalab so‘zlarning ma‘nosi, izohlari ham sahifa ostida berilgan. Fitrat so‘zlarning ma‘nolarini topishda izohlanayotgan so‘zning boshqa turkiy manbalardagi shakllari, asl mohiyatni anglashga harakat qiladi.

Ani ko‘rub Chistoni Elining begi yuragin berk tutib yo‘lbarlar begi kabi..... yuzini tinchlab qo‘rqusiz, ayashsiz ko‘ngul bilan ul ajinalar orasig‘a kirib bordi.

So‘ngra chistoni Elikbek bor kuchini undirib to‘la sakrab bordi-da “Uru muki” atalg‘an bir ajinani, tepasidagi sochidan, tutib qilichin na‘ra bilan ko‘tarib boshini to‘g‘ramoq uchun urgan.

Xuddi shunda ul ajinalar chistoniy elikning kuchini quvatini, qichqirishni, olovini, baxtini, davlatini ko‘rub ortuqcha qo‘rqdilar. Tovishlarini past chiqarib elik bekka shunday dedilar: Insonlarning arsloni, beklarning baxt tangrisi o.....

¹⁰⁴ To‘nga – yo‘lbar.

¹⁰⁵ Kishotrik yaklar – anglashimag‘ani uchun o‘zbekcha o‘rni bo‘sh qoldirildi.

¹⁰⁶ Manglab – yaxshilab. (“Devoni lug‘ot” j.3 b. 299.)

FITRAT TADQIQOTLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI

Abdurauf Fitrat majmuada xalq og‘zaki ijodning eng go‘zal va mukammal shakli bo‘lgan turkiy eposlarga alohida e‘tibor bilan qaratgan. “O‘zbek adabiyoti namunalari” asarida “Alpomish” va “Qo‘rqud ota kitobi” (Fitrat majmuasida “Kitobi Dada Qo‘rqud” tarzida berilgan) dostonlaridan parchalar keltiradi. Ushbu dostonlarning badiiy qimmatini to‘g‘ri baholay olgan olimning o‘z majmuasida bu ikki dostonni tanlashiga asoslar bor edi. “Alpomish” dostoni qadim tarixga ega bo‘lib, uning bir qancha nusxalari mavjud bo‘lgan. V.M.Jirmunskiy dostonlarga oid tadqiqotida “Alpomish” dostoniga to‘xtalib, uning o‘g‘uz, oltoy, qipchoq, hamda qo‘ng‘irot kabi bir-biriga juda o‘xshash versiyalarini tilga oladi¹⁰⁷. V.M.Jirmunskiy “Alpomish” dostonining o‘g‘uz versiyasi borasida fikr yuritganda, “Alpomish”ni tilga oladi, uni “Qo‘rqud ota kitobi” bilan solishtiradi. “Qo‘rqud ota kitobi”ning uchinchi Bamsi Bayrak haqidagi hikoya hamda “Alpomish” dostonining o‘zaro o‘xshash jihatlariga keng o‘rin ajratadi. Hatto Alpomish so‘zi aslida Alp+Mamsi shaklida bo‘lib, tovush o‘zgarishi natijasida “Alpomish” shakliga kelib qolganligini ta’kidlaydi.¹⁰⁸

“Qo‘rqud ota kitobi” ozarbayjon xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida e‘tirof etiladi. Qo‘rqud ota shaxsiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tarixiy shaxs VII asrda yashab ijod etgan. VII-VIII asrlarda Ozarboyjonda yozma adabiyot taraqqiy etmagan bo‘lsa ham, bu shaxs nomi bilan bir qancha rivoyat va hikoyalar xalq orasida mashhur bo‘lgan. Keyinchalik bu rivoyatlar yaxlit asar sifatida shakllantirilgan va “Qo‘rqud ota kitobi” nomi bilan yoyilgan.

Prof. Muharram Ergin tomonidan 1986 yilda turk tilida “Qo‘rqud ota kitobi” kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan bo‘lib, olim kitobni ikki jildda nashr ettiradi. Birinchi kitob matn qismi, ikkinchi qism esa indeks va grammatikadan iborat¹⁰⁹. Olim nashrning so‘zboshisida eposning mavjud ikki nusxasi haqida ma’lumot berib o‘tadi. Eposning Drezden va Vatikan nusxalari mavjud bo‘lib, Drezden nusxasi 12,

¹⁰⁷ Жирмунский. В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974. – Б. 156–165.

¹⁰⁸ Жирмунский. В.М. Тюркский героический эпос. – С.156–165.

¹⁰⁹ DedeKorkut kitabı. II. Indeks-Gramer. Ankara, 1958. Prof.dr. Muharrem Ergin.

Vatikan nusxasi esa 6 hikoyadan tashkil topgan. Eposning yana bir turk tilidagi nashri 2003 yilda Selim Tezjon tomonidan amalga oshirilgan. Asar 12 hikoyadan tashkil topgan va “Dadaqo‘rqud hikoyalari” deb nomlanadi¹¹⁰.

V.M.Jirmunskiy epos tarkibidagi obrazlar tizimini tadqiq etar ekan, eposning markaziy qahramonlaridan biri Uruzni (Aruz) Alb Erto‘nganing o‘g‘li sifatida ko‘rsatadi. Fikrini asoslash maqsadida Uruzning pahlavonlik holati tasvirlangan matnlarga e‘tibor qaratadi. Uruzni Alb Erto‘nganing o‘g‘li sifatida baholab, uning otasi Salur Qozon (Salar qozon)ga berilgan unvonlarga tayanib Afrosiyobga nisbat beradi.

Abdurauf Fitrat “Qo‘rqud ota kitobi”dan namunalar keltirar ekan, eposda boshqa qahramonlik dostonlariga o‘xshash o‘rinlar borligini e‘tirof etadi. Majmuada eposning 3-hikoyasidan parchalar berib, izoh sifatida quyidagilarni keltiradi: “Alpomish” dostonimiz bilan juda ochiq boshlanishi bordir. Hatto ikkala dostondag‘i qahramon ham Boybo‘ra, Boybo‘ri o‘g‘lidir”¹¹¹. Fitrat ta’kidlaganidek, bu ikki epos syujet va obrazlari tizimi hamda o‘g‘uz eposi bo‘lishi jihatidan biri-biriga juda o‘xshash.

Fitrat majmuasida keltirilgan matn professor Muharram Erkin tomonidan 1986 yilda nashr ettirilgan epos matni bilan solishtirilganda, ularning aynan ekanligiga amin bo‘ldik. “O‘zbek adabiyoti namunalari” arab alifbosida nashr ettirilgan. Majmuadagi epos matni ham shu yozuvda berilgan. Turk tilidagi qattiq va yumshoq unilar shakli bir xil harflar vositasida berilgan. Shuning uchun ham har ikkala matn orasidagi farqli xususiyatlar unilarning o‘zgarishi, jarangli va jarangsiz undoshlarning almashinuvida ko‘zga tashlanadi, xolos. Bu holatni esa yuqorida ta’kidlaganimizdek, matnni arab alifbosida berilganligida deb izohlash mumkin. Fitrat majmuasida keltirilgan quyidagi parchalar “Bir kun. Qamg‘on o‘g‘li Xon Boyundur yerindan turmishdi. (Shomi kunliki) yer yuzina dekdirmishdi. Ola sayvoni ko‘k yuzina oshonmishdi”¹¹² Muharrem Ergin nashrida quyidagicha beriladi: “Bir gun. Qam xon o‘li Boyindir

¹¹⁰ DedeKorkut hikayeleri. Uskudar- Istanbul, 2003. Hazirlayan Selim Hangio‘li.

¹¹¹ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева) -Т., 2013– Б. 43.

¹¹² Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева) -Т., 2013. – Б. 44.

yerinden turmish-idi. Shami gunluga yir yuzine dekdirmish-idi. Ala sayvoni go'k yuzine ashanmish-idi"¹¹³. Fitrat majmuadagi matnlarning ba'zi o'rinlarini qisqartirib beradi. Biroq bu qisqartirishlar u qadar ahamiyatli emas. Majmuadagi matnni kuzatish jarayonida Fitratning o'rganayotgan asarga ijodiy yondashganligiga guvoh bo'lish mumkin. Grammatik qoidalarni bilgan olim *var idi, do'shanmish idi, demish idi* kabi so'zlarni qo'shib *vardi, do'shanmishdi, demishdi* shakllarida keltiradi. Ba'zi o'rinlarda matnni ulash maqsadida *va bog'lovchisini qo'shib ishlatadi*.

Majmuadagi "Qo'rqud ota kitobi"dagi ilk matn Darsaxonning farzandli bo'lishi voqealarini aks ettirgan parchalar bo'lib, keyingi namuna "Uchinchi hikoya" sarlavhasi ostida berilgan Boybo'ra haqidagi voqealardir.

Ba'zi o'rinlarda matnlar orasida leksik farq ham ko'zga tashlanadi. Fitrat majmuasida keltirilgan parchadagi *ayvon* so'zi Muharrem Erkin nashrida *ivin* shaklida qo'llangan. Muharram Erkin matnidagi *Qaba o'kchem altina solayinmi* misrasiga qo'shimcha ravishda Fitrat (*qaba o'kcha taqim*) jumlasini qo'shgan¹³. Bu kabi leksik farqlar juda oz. Matnlar aynan. Selim Xanji o'g'li tomonidan e'lon qilingan matn esa bu ikki matndan tubdan farq qiladi. Hikoyalar mazmuni bir xil bo'lsa-da, matniy farqlar juda ko'p.

Professor Muharram Erkin kitobning so'zboshisida doston Drezden nusxasi asosida nashr ettirilganini ta'kidlab o'tgan. Fitrat majmuasida keltirilgan matn bilan ushbu matn bilan bir xil ekanligini hisobga olib, Fitrat ham aynan shu nusxadan foydalangan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki Drezden nusxasi adabiyotshunos olimlar tomonidan eng mukammal nusxa deya tan olingan.

Qahramonlik dostonlari sirasiga kiruvchi "Alpomish"¹¹⁴ ilk yozib olingan davridayoq olimlar va kitobxonlar diqqat markazida bo'ldi. Doston ilk bor Fozil Yo'ldosh o'g'li hamda Hamroqul baxshilardan G'ozil Olim tomonidan yozib olingan bo'lib, 1922 yilda "Bilim o'chog'i" jurnalida nashr ettirilgan. 1928 yilga kelib folklorshunos olim Hodi Zarif Fozil Yo'ldosh o'g'lidan dostonning yana bir variantini yozib olgan. Dostonning keyingi namunalari Berdi baxshidan Abdulla Alaviy, Saidmurod Panoh o'g'lidan Shamsi

¹¹³ Dede Korkut kitabi. Metin-Sözlük. Prof. dr. Muharrem Ergin. – Istanbul, 1986.

¹ Мадаев О, Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Шарқ, 2008. – Б.116.

Murodov tomonidan yozib olingan. Doston yozib olingan ilk davrlardan boshlab ularni o‘rganish, matnlarni solishtirish, tahlil qilish, g‘oyaviy hamda matniy farqlanishlarni o‘rgana boshlashdi. Bu izlanishlarning ilk debochasi sifatida Abdurauf Fitrat tadqiqotlarini taqdim qilish mumkin. Fitrat “Alpomish” dostoni tadqiqiga kirishishdan oldin deyarli har bir asarida el adabiyoti hamda yozma adabiyot tushunchalarini farqlashga, tarkibidagi namunalarning mohiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Xususan, el va yozma adabiyot farqini ularning muallifi mavjud yoki mavjud bo‘lmasligida deb baholash biryoqlama (shakliy holat) bo‘lishini, ulardagi asosiy farq ruhida ekanligi ta’kidlaydi. Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida sochim va saj’ tushunchalarini izohlar ekan, ularning asosiy namunalari sifatida “Alpomish” dostonidan parchalar keltirgan. Dostonning yana bir matni Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasidan o‘rin olgan.

Dostonning boshlang‘ich qismi G‘ozi Olimning Hamroqul baxshi va Fozil Jiravdan¹¹⁵ yozib olgan variantidir. Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1922 yilda yozib olingan qismi yo‘qolgan. Shu munosabat bilan u haqda to‘liq bir fikr yuritib bo‘lmaydi. Doston 1928 yilda qayta yozib olingan. Qayta yozilgan matnda 1922 yildagi asosiy matn saqlanib qolgan. Ular o‘rtasidagi farq 1928 yil variantida tasvirning kengayishi, misralarning qisqarishi, ularning boshqacha talqin qilinishi, diniy tushunchalarning kamayishi bilan izohlanadi.

Fitrat o‘z majmuasida dostonning boshlang‘ich qismini Fozil Yo‘ldosh variantidan keltiradi. Bu variant mustaqillik yillarida 1998 yilda Hodi Zarif hamda To‘ra Mirzaev tahriri ostida nashr etildi¹¹⁶. Fitrat majmuasida keltirilgan parchada dostonning boshlang‘ich qismi, biylarning farzandsizligidan boshlab, Boysarining zakot sabab qalmoqlar yurtiga ko‘chib ketishi davrigacha bo‘lgan voqealari aks ettirilgan. She’riy parchalarning aksariyat qismi qisqartirilib berilgan. Boysun-Qo‘ng‘irotning qalmoq eliga jo‘nash tasviri tushirib

¹ Jirav so‘zi baxshi degan ma‘noni anglatadi. Fitrat aynan shunday keltiradi.

² Алпомиш / Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, нашрга тайёрловчилар: Ходи Зариф, Тўра Мирзаев. – Т.: Шарк НМАК, 1998.

qoldirilib¹¹⁷, qalmoq dehqonlarinig shoh Toychaxonga arz qilish voqealari bilan majmuadagi parchalar yakunlanadi.

“O‘zbek adabiyoti namunalari”da keltirilgan parchalarning 1998 yilgi nashr bilan solishtirilganda, ular aynan bir xil ekanligiga guvoh bo‘linadi. Parchalar o‘rtasidagi farq ba’zi unli va undoshlarning o‘zgarishi, xususan, jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi hamda matnning juda ko‘p o‘rinlarda qisqartirishlar bilan berilishida ko‘zga tashlanadi. Fitrat majmuasidagi *uruq, Dovonbiy, o‘tti, to‘yg‘a, kanglu, cho‘pron* kabi so‘zlar¹¹⁸ 1998 yilgi nashrda *urug‘, Dobonbiy, o‘tdi, to‘yga, ko‘ngli, cho‘furon* shakllarida¹¹⁹ keltiriladi. “Bu dostonlardan biri – el adabiyoti yo‘lida tirishguchilarimizdan o‘ртоq G‘ozi Olimning 1922 yilda Toshkent va Samarqand uezdlarida yashayturg‘an o‘zbeklarning mashhur oqinlari – Hamroqul baxshi va Fozil jirav Yo‘ldosh o‘g‘lining og‘zidan yozib olgani “Alpomish” dostonidir”¹²⁰. Fitrat dostonning keyingi variantini tabiiy ravishda o‘z majmuasiga kiritmagan.

Fitrat majmuadagi dostonning boshlang‘ich qismidan keltirilgan parchalarni Fozil Yo‘ldosh hamda Hamroqul baxshidan yozib olingan, deb yozadi. Biroq ushbu parchalar Fozil Yo‘ldosh variantining aynan o‘zi. Hamroqul baxshi variantining to‘liq matniga ega emasmiz. Undan ayrim parchalar G‘ozi Olim Yunusov tomonidan “Bilim o‘chog‘i” jurnalida nashr ettirilgan. Parchada Boysari boshliq o‘n ming uyli qo‘ng‘irotliklarning mollari qalmoq dehqonlari ekinlarini yeb ketishi, ularning Toychixonga arz qilishi, Surxayl kampirning sovchiligi, alplarning Barchin uchun o‘zaro talashlari va Boysariga sovchilikka borishlari, Barchinning Qo‘ng‘irotga xabar yuborishi Qaldirg‘och maslahati bilan yo‘lga chiqqan Alpomishning mozorotda tunashigacha bo‘lgan voqealar tasvirlanadi.

Fitrat majmuada dostonning har ikkala baxshi variantida bir xil boshlang‘ich qismini keltiradi. Demakki, Fozil Yo‘ldosh hamda Hamroqul baxshi variantlarining boshlang‘ich qismi aynan bir xil

³ Bu tasvir Fozil Yo‘ldosh variantida katta hajmga ega (2 varaq).

¹¹⁸ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1 жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева) -Т., 2013. – Б. 28.

¹¹⁹ Алпомиш. – Т.: Шарқ, 1998. (Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зариф, Тўра Мирзаев) – Б. 14.

¹²⁰ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Танланаган асарлар. 4-жилд (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев). – Т.: Маънавият, 2006. – Б.74.

degan xulosaga kelish mumkin. Dostonning so‘nggi qismi Berdi baxshi tomonidan aytilgan variantdir. El orasida Berdi baxshi nomi bilan shuhrat qozongan Berdiyori Pirimqul o‘g‘lining “Alpomish” dostoni (inv. № 46) dostonchilik an‘anasining yaxshi xususiyatlarini o‘zida saqlaganligi, she‘riy misralarning nisbatan badiiy pishiqligi bilan ajralib turadi. Berdi baxshidan yozib olingan “Alpomish” g‘oyaviy-badiiy jihatdan boshqa variantlardan ajralib turadi. Unda samimiy yumor va hajviy ruh sezilib turadi. Ushbu variant o‘zining badiiy shakli jihatidan ishqiy-romantik dostonlarga yaqin turadi. O‘ziga xos lirizm, chiroyli tasvirlar, xalq qo‘shiqlari she‘riy bezaklarga moyillik, ba‘zi tafsilotlarning jimjimador ishlash Berdi baxshi uslubining asosiy belgilaridan biridir.

Berdi baxshining “Alpomish” dostoni 1969 yilda nashr ettirilgan¹²¹. Ushbu nashrda dostondagi juda ko‘p o‘rinlar qisqartirilgan. Bu holatni dostonning 1999 yildagi qayta nashri¹²² bilan solishtirish jarayonida ko‘rish mumkin. 1969 yilgi nashrda dostondagi diniy hamda e‘tiqodiy parchalar tushirib qoldirilgan.

Fitrat o‘z majmuasida dostonning so‘ngi qismini Berdi baxshi variantidan keltiradi. Tovka oyimning yordami bilan Alpomishning zindondan qutulishi hamda Qaldirg‘ochning tuya boqib yurgan holati aks etgan parchalar kichik hajmda majmuadan o‘rin olgan. Ushbu parchalar 1999 yilgi nashr bilan solishtirilganda ularning aynan bir xil ekanligi kuzatildi. Farqli jihatlar yuqorida keltiriganimiz kabi unli va undoshlar o‘zgarishi hamda matnning qisqartirib berilishida ko‘rinadi.

Majmuadagi doston matnlari shunchaki keltirilmay olim tomonidan tushunarsiz so‘zlar izohlanib, havolalarda berib o‘tiladi. Olim dostonning bir o‘rnida “mazgil” so‘zini izohlar ekan, u aslida arabcha “manzil” so‘zi ekanligi, o‘zbekchalashib shu shaklda ishlatilishini ta’kidlaydi. Fitrat dostondagi Shohimardon pir obraziga alohida e‘tibor qaratadi. Bu kabi islomiy obrazlar ko‘pchilik dostonlarda mavjud bo‘lib, olim ularning syujet tizimida o‘rniga qarab ma’lum turlarga ajratadi. Fitrat islom dini qabul qilinganidan so‘ng doston syujetidagi Ali, Muhammad Hanafiy, Zaynularab, Boboravshan kabi qahramonlarning paydo bo‘lishini shu bilan izohlaydi. Bu jihat dostonlar olim tomonidan ikki turga: “1. Islomiy

¹ Алпомиш / Айтувчи Берди бахши, нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Т.: Фан, 1969.

² Алпомиш / Айтувчи Берди бахши, нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Т.: Ёзувчи, 1999.

qahramonlar qatnashgan 2. Islomiy obrazlar ishtirok etmaydigan” tarzida ajratiladi. Dostonlarning birinchi turida qahramonlar dostonning syujet tizimida ikkinchi va uchinchi darajadagi qahramonlar sifatida ishtirok etadilar. “Alpomish” dostonidagi Shohimardon pirning ikkinchi-uchinchi darajadagi qahramon sifatida asarda bir ko‘rinib, keyinchalik ishtirok etmasligi shu bilan izohlanadi.

MILLIY SHE'R TIZIMI, TAHLIL, TALQINLAR

Badiiy adabiyot, tur va janrlar va ularning nazariy qoidalari va imkoniyatlari xususida, davriy takomili va tadriji borasida juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan. Bu tadqiqot xulosalari, janriy mutatsiya va variantlilik hodisalari badiiy ijodning doimiy harakatda ekanligini ko'rsatadi. Mumtoz adabiyot an'analari aruz vazni va mumtoz she'r shaklining o'ziga xos xususiyatlari davrlar osha adabiy ta'sir sabab o'z o'rnini barmoq vazni va shu asosdagi she'r shakllariga bo'shatib berdi. She'rning ta'rifi va uning imkoniyatlari borasidagi qarashlar o'zgardi. Bu masalalar Fitrat tadqiqotlaridagi yetakchi mavzu bo'lib, olimning milliy she'r tizimi va uning mumtoz she'r tizimidagi farqli jihatlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari bugungi kun adabiyotshunosligida ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mumtoz she'r uchun mazmun bilan bir qatorda shaklning o'rni katta. Xususan, mumtoz lirik janrlar vazn va qofiya imkoniyatlariga qarab turlarga ajratilgan. Poetika ilmida lirika uchun vazn, qofiya va badiiy san'atlarning ishtiroki, ularning kamchiliksiz qo'llanishi asosiy shartlardan sanalgan. XX asr boshlariga kelib bu nazariya o'zgarishga yuz tuta bordi. Fitrat milliy she'r tizimi xususida to'xtalar ekan, vazni va qofiyasiga ega parchalarni she'r deb atash "madrasalardan qolgan yanglish fikr" ekanligini ta'kidlaydi. Faqat qofiya va vaznning ishtiroki she'rni shakllantirolmashligini So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridan olingan parchalar orqali ifodalab beradi.

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqida tu, furug'u qurbi mahbub.

Onikim ko'rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar gar duo qilsa eranlar.

Bitilsa turkiy til birla aqida,
Ko'ngullar bo'lsa ondin oromida.

Masnaviy shaklida yozilgan ushbu parchalarda vazn va qofiya imkoniyatlari yetarlicha ochib berilgan bo'lsa-da, biroq bu she'riy parchadagi mazmun ma'lumot berish, xabar berish vazifasini bajargan. Olimning fikriga ko'ra bu tizmalarga "she'r" maqomini

berish to‘g‘ri emas, ularni shunchaki nazm parchasi deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Fitrat she‘r uchun vazn va qofiyaning daxli yo‘qligini, vazni va qofiyasi bo‘la turib she‘r bo‘la olmagan parchalar bo‘lgani kabi vazn va qofiyasiz she‘r parchalari borligiga ishora qiladi. Ma‘lumki, mumtoz adabiy parchalarda vazn va qofiya she‘rning asosiy unsuri sanalgan, demak, Fitrat vazn va qofiyasiz she‘r sifatida mumtoz matnlarni emas, Cho‘lponning sochma shaklida yozilgan “Kleopatra” she‘riga murojaat etadi.

Oydin kechalarda sirli Nilning bo‘ylarida uzun etaklaringizni
Maysalar, gullar ustidan sudrab yurub, yangi
Ochilg‘an, vafo hidli nilufar chechagi uzubsan.
O‘zingni yelpib turg‘uchi qo‘lg‘a chechakning fazilatlaridan
Gapirganingni eshitdim.

Ko‘rinib turibdiki, Fitrat tizmani she‘r bo‘lishi uchun alohida mezonlarni talab qiladi. Olim vazn va qofiyasi mavjud tizma she‘r bo‘lishi uchun unda lirikaga xos tuyg‘u va ta‘sir yuki bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi. Voqeaning bayonidan tashkil topgan vazn va qofiyali parchalarda bunday xususiyat yo‘q, demakki, garchi vazn va qofiyasi bo‘lsa-da, mohiyatan ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan tizmalarga nisbatan “she‘r” maqomini berish to‘g‘ri bo‘ladi. Bu holat “she‘r” talabi uchun shakldan ko‘ra mazmun va tasvir uslubini asosiy mezon sifatida belgilaganini ko‘rsatadi.

Fitrat mumtoz she‘r tuzilishi, aruz vaznining ilmiy-nazariy qoidalari borasida jiddiy tadqiqotlar olib borish barobarida o‘z davri uchun yangi vazn sifatida kirib kelgan barmoq vazni imkoniyatlari va ayni vaznda ijod qiluvchi zamondosh shoirlarning ijod mahsullari borasida ham yetarlicha izlanishlar olib borgan, she‘riy parchalarni tahlilga tortgan. Olim barmoq vazni xususida to‘xtalar ekan, bu vaznning asosi bo‘g‘inlar soni ekanligini ta‘kidlaydi. Aruz vaznidagi hijo imkoniyatlari bilan barmoq vaznidagi bo‘g‘in imkoniyatlari teng kela olmasligini, barmoq vaznidagi she‘rda bo‘g‘inlarning cho‘ziq yoki qisqaligi emas, ularning soni muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib, odatda misralardagi bo‘g‘inlar sonining miqdori teng bo‘lishiga ishora qiladi. Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida milliy she‘r tizimi, barmoq vazni xususida to‘xtalganda, Cho‘lpon, Botu

ijodiga ko‘p bora murojaat qiladi, Botuning barmoq vazni qonuniyatlari asosida yozilgan she‘rlarini tahlilga tortadi¹²³.

Ko‘nglumda bo‘lg‘an sevgi tamug‘i:
Dardli ko‘nglumning sevgan ozug‘i,
Bu tamug‘dagi olovlar so‘nsa,
Tirikligimning so‘nar yorug‘i.

Keltirilgan she‘rda har misradagi bo‘g‘inlar miqdori o‘nini tashkil qiladi. Fitrat shu asosda bu she‘rni o‘nlik she‘r shakli sifatida baholaydi. Barmoq vaznidagi ritmik birliklardan biri sifatida turoq keltiriladiki, Fitrat turoqni misralar o‘rtasidagi to‘xtam sifatida baholaydi.

Ko‘nglumda bo‘lg‘an / sevgi tamug‘i: 5+5
Dardli ko‘nglumning / sevgan ozug‘i, 5+5
Bu tamug‘dagi / olovlar so‘nsa, 5+5
Tirikligimning / so‘nar yorug‘i. 5+5

Demak, yuqoridagi she‘r 5+5 shaklida o‘nlik tizmada yozilgan. Fitrat barmoq vaznidagi she‘r to‘rtlikdan o‘n oltilikkacha shaklda yozilishini ta‘kidlaydi, har biriga namunalar keltiradi:

O‘lgan kelmas, 4
O‘chqon yonmas 4 (El so‘zi)

Xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida keltirilgan ushbu she‘riy parcha misralaridagi bo‘g‘inlar miqdori 4 ta, shu bois bu she‘r shakli to‘rtlik shakl sifatida keltiriladi.

Fitrat keltirilgan she‘riy parchalar orqali turoqlanish, ularning o‘rni har doim ham o‘zaro mutanosib bo‘lavermasligini, bu esa she‘r shaklining turli shakllarini yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rish mumkin. Xususan, olim yettilik she‘r shakli namunasi sifatida Cho‘lponning she‘riga murojaat etadi. Cho‘lpon yettilikning ikki turini aralashtirgan holda murakkab, og‘ir vazn asosida she‘r yozganini ta‘kidlaydi. Bu murakkablik ikki shakl turoqlarining o‘zaro mutanosib kelmaganligida ko‘zga tashlanadi.

Men kuchli – menda isyon, 3+4
Men to‘lqun – menda tug‘yon, 3+4
Ko‘pururman – tosharman. 4+3

¹²³ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. -Т. Маънавият. 2006. 25

Bu holat faqatgina yettilik she'r shaklida emas, balki barmoq vaznining yettilikdan keyingi o'n oltilik she'r shakllarida ham ko'zga tashlanadi. Baytlar o'zaro mustaqil turoqlanishga ega bo'lishi she'r ohangdorligini oshiradi.

Otimdir o'g'uz – bilinglar ayon, 5+5

Nomimdir Xusrav – bilinglar yaqin. 5+5

Erka malak – achchig'lanmam senga, 4+6

Uchursang-da – ko'kka yurak kulin. 4+6 (*Fitrat*)

Fitrat barmoq vaznining o'n ikkilik shakli xususida to'xtalganda, Ahmad Yassaviy hikmatlari, ikkiliklariga murojaat etadi, misralararo turoqlanishdagi o'ziga xoslik xalq og'zaki ijodi namunalariga yaqin ohangdorlikka sabab bo'lganini ta'kidlaydi.

So'zum qattig' – tilim achchig' – o'zim zolim, 4+4+4

G'arib jonim – sarf aylaysan – yo'qdur holim. 4+4+4

Barmoq vaznidagi o'n to'rtlik va o'n oltilik she'r shakli og'ir, yettilik va sakkizlik turoqlanishga ega bo'lgani uchun kamroq uchraydi. Fitrat bu holatga alohida e'tibor qaratadi, "uqtirish" izohi ostida buning sababini ko'rsatadi. O'n to'rtlik she'r shakli 7+7 turoqlanish shakliga ega bo'lgani bois alohida misra shaklida berish imkoniyatini beradi, o'n to'rtlik she'r shaklida esa 8+8 turoqlanish sakkizlik she'r shaklini eslatadi. Shu bois bu ikki she'r shaklidagi namunalar u qadar ko'p emas.

Gash etdim tog'-u tuzlari – ko'rdim ajoyib qizlari, 8+8

Bizning yerning kanizlari – hur ila g'ilmon mani zor. 8+8

Fitrat aruz vazni kabi barmoqdagi bu shakliy qoidalar ijodkor ilhomini "bo'g'moq"dan boshqa foyda bermasligini ta'kidlaydi. Olim vazniy kenglik istagan ijodkorlar bu kabi turoqlanishlarga u qadar e'tibor bermasligi ularning ilhomiy holati ekanligini to'g'ri angelaydi va shoirlarning bu tanlovini ma'qullaydi. Bu esa Fitrat qoliplarga bog'lanib qolmagan erkin ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat barmoq she'r tizimi va uning qonuniyatlarini chuqur anglagan va tahlil yo'nalishini to'g'ri tanlay olgan.

FITRAT TADQIQOTLARIDA BADIYYAT MASALASI

Mumtoz adabiyotda ijodkorning mahorati nimani tasvirlagini bilan emas, qanday tasvirlagini bilan o'lchangan. Demakki, ijodkorning mahorati uning tasvir uslubi bilan bog'liq. Abdurauf Fitrat mumtoz poetika ilmining bilimdoni sifatida aruz, mumtoz qofiyaning nazariy asoslarini o'rganish barobarida ilmi badi' va uning badiiy adabiyotdagi o'rni masalasida ham o'z pozitsiyasidan kelib chiqqan holda nazariy fikrlarini, xulosalarini taqdim etgan. Olimning "Adabiyot qoidalari" darsligida badiiy san'atlar va ularning badiiy matndagi ishtiroki ijodkor uslubining xususiy holi sifatida keltiriladi. Fitrat badiiy san'atlarni ijodkorning tasvir uslubi ekanligini ta'kidlab, sifatlash, o'xshatish, istiora, kinoya, majoz, jonlantirish, so'rash, mubolag'a, undash, qarshilik, qaytish, kesish, burilish kabi tasvir vositalarini baytlar asosida tushuntiradi¹²⁴. Agar e'tibor qilinsa, Fitrat badiiy san'atlarni nomlashda turkiy so'zlarning ishlatilishiga alohida e'tibor qaratgan, arabiy, forsiy nomlar o'rniga xususiyatidan kelib chiqqan holda alohida nomlashni afzal ko'rgan, ularning ta'rifini berishda ham soddalikdan foydalangan. Badiiy san'atlarning imkoniyatini ochib berish maqsadida mumtoz ijodkorlar baytlari va shu bilan birgalikda zamondosh ijodkorlar ijodiga ham murojaat qilgan.

Olim sifatlash badiiy tasvir vositasining o'ziga xos xususiyatini izohlar ekan, "tasvir etmak istaganingiz bir narsaning suratini ko'z oldiga keltirmak uchun u narsaning suratlarini, hollarini qatorlab tizish" sifatlashning asosini tashkil qilishini ta'kidlaydi. Namuna sifatida o'z ijodidan bayt keltiradi:

Kuchsiz, titrak, oppoq, kichik tomchilar

Turmay, tinmay tuproq uzra yog'adir.

Baytdagi tomchining *kuchsiz, titrak, oppoq, kichik* sifatlari kitobxon ko'z oldida tomchining tasvirini chizib beradi. Tomchining *turmay, tinmay* yog'ish tasviri esa tomchilar shiddatini ko'z oldingizda gavdalantiradi.

Ilmi badi'ga oid arabiy, forsiy va turkiy risolalarda tashbihning izohi uning to'rt unsuri bilan birgalikda tushuntiriladi, izohlanadi. Dastlab Qur'on oyatlari va hadislardagi jumlar asosida tashbihning imkoniyatlari ochib berilsa, keyinchalik badiiy matndagi o'zgarishlari,

¹²⁴ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. -Т. Маънавият. 2006. -Б. 50-67.

tatbig‘i borasida munosabat bildiriladi. Risolalarda tashbihning ta‘rifiga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, risola mualliflari tashbihning imkoniyatlarini o‘z davrida yaratilgan badiiy matnlardagi ishtiroki asosida ta‘riflashadi. Fitrat ham “Adabiyot qoidalari” asarida shu an’anani davom ettiradi, ya’ni bu tasvir vositalarini turkiy tildagi imkoniyati asosida ularga ta‘rif beradi, izohlaydi. Avvalo, Fitrat tashbihni o‘xshatish atamasi bilan almashtiradi. o‘xshatishning to‘rt unsurini juda oson yo‘l bilan tushuntiradi: o‘xshagan (Ahmat), o‘xshatilgan (arslon), o‘xshatish qaydi (kabi, -dek...), o‘xshash (boturdir).

Arslonday yurakli,
Tog‘ kabi gavdasi,
Olovdek so‘zi,
Temir o‘xshash qo‘li,
Ko‘zgu singari ko‘ngli bordir.

Fitrat ushbu she‘riy parchadagi tashbihni bir jumla holida keltirib, tashbih unsurlarining ishtiroki mohiyatga qay darajada ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatib beradi.

Ahmat arslon kabi boturdir. Ushbu gapdagi o‘xshatishda to‘rtala unsur ham: o‘xshagan, o‘xshatilgan, o‘xshatish qaydi, o‘xshash ham ishtirok etgan. *Ahmat botirlikda arslondir.* Bu jumlada esa o‘xshatish qaydi ishtirok etmagan. *Ahmat arslon kabidir.* Ushbu gapda esa o‘xshashi yo‘q. *Ahmat arslondir.* E’tibor qilinsa, bu gapdagi o‘xshatishda o‘xshash ham, o‘xshatish qaydi ham ishtirok etmagan. Tabiiyki, bu to‘rt shakldagi o‘xshatishlarning mazmunida yetarlicha farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Fitrat bular orasida to‘rtinchi holat, ya’ni o‘xshashi va o‘xshatish qaydi ishtirok etmagan shakllarning mazmuniy darajasi kuchliroq ekanligini ta’kidlaydi. Olim o‘xshatishning chiroyli chiqishi uchun zo‘raki, yasama o‘xshatishlardan qochish kerakligini aytadi. Bu borada Komil Xorazmiy va Navoiyning baytlariga murojaat qilib, ulardagi o‘xshatishlarni inson ta’bini xira qiluvchi ekanligiga ishora qiladi.

Alifdek tuz qad-u nundek qoshing hijronidin har dam,
Tafakkur birla gah nundir qadim, gah o‘ylakim yodur.

Jonbaxsh la’ling ustida ul xoli hindularmudur,
Yo chashmai hayvon uza zog‘ siyah mu(g‘)larmidur?

Fitratning tahliliga ko‘ra Komil Xorazmiy tomonidan ta’riflangan yor qadining “alif”ga, qoshini “nun”ga, og‘zini buloqqa, xolini qarg‘aga o‘xshatilishi odam tabiatini xira qiladi. Navoiyning

Ermas uchuq, shakarga yopishmas chibin biri,
Iki labim bila oni olsam dudog‘ingdan.

baytidagi o‘xshatish ham Fitrat tomonidan ijobiy baholanmaydi. Olim o‘xshatish tabiiy shaklda tasvirlanishini, insonda noqulaylik tug‘dirmasligi kerakligini asos sifatida keltiradi.

Fitrat tasviriy vositalar orasida istioraga keng to‘xtaladi. Istioraga “bir so‘zning o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’no uchun ishlatilmog‘i” deya ta’rif beradi. Ma’lumki, istioraning asosini ham o‘xshatish tashkil qiladi. Biroq istiora o‘xshatishdan farqli o‘laroq unda tashbih unsurlaridan: o‘xshatilgan va o‘xshamish ishtirok etmaydi. Fitrat bu ikki unurning ishlatilishiga ko‘ra ikki turini farqlaydi: *ochiq istiora va yopiq istiora*. Ochiq, ko‘rinib turgan istiorada o‘xshamish o‘rnida o‘xshatilmish ishtirok etadi. Fitrat ochiq istiorani ko‘rsatish maqsadida “*U shayton bilan mening hech ishim yo‘q*” gapini namuna sifatida keltiradi. E’tibor berilsa, gapda o‘xshamish ham, o‘xshatilmish ham ishtirok etgan. Yopiq istiorada o‘xshatilgan o‘rniga o‘xshagan qatnashadi va o‘xshatilmishga ishora qilinadi.

Borliqning chokini so‘kma,
Kel, emdi “yashnab” o‘saylik.

misralaridagi *shamol* insonga o‘xshatilgan, ya’ni insonga ishora qilingan.

Fitrat izohlagan bu tasvir uslublari nafaqat she’riy asarlarda, balki nasriy asarlarda ham ko‘zga tashlanadi. Olim o‘xshatish, istiorani zamondosh ijodkorlarning nasriy asarlaridan ham qidiradi. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, Saydalining “Tabiatda bahor” parchalaridagi tasviriy vositalarni birma-bir tahlil qiladi.

Fitrat tashxis nomi ostida keltiriladigan badiiy san’atni jonlantirish atamasi ostida keltiradi, Elbek va Cho‘lponning she’rlaridan olingan parchalar orqali jonlantirishning barmoq vaznidagi imkoniyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Bir zamon ko‘klarga qanot qoqqan bu,
Sevgili, muhtasham haybatli bino.
Yemrilish soatin kutganday bo‘lub,
Ko‘runur ko‘zga qayg‘ulig‘ina.

Elbekning ushbu she'riy parchasida haybatli binoga qanot qoqish imkoniyati berilgan, binoga tegishli bo'lmagan xususiyat orqali unga jon ato qilinishi jonlantirishni yuzaga keltirgan. Fitrat shu o'rinda "Layli va Majnun" dostonidagi bog'da Laylining oyog'i ostiga hushsiz yiqilgan Majnunning o'ziga kelganidan keyingi holatda unga bog'dagi gul, bulbul, yog'ochlarning qayg'udosh bo'lishi holati tasvirlangan parchalarni jonlantirishning go'zal namunasi sifatida taqdim etadi.

Bulbul boshi uzra nag'mapardoz,
Ahvolig'a navha aylab og'oz.

Gul holig'a chun nazora aylab,
Gulgun yaqosini pora aylab....

Ilmi badi'ga oid risolalarda tajohuli orif (bilib, bilmaslikka olish) san'ati Fitrat tomonidan so'rash nomi bilan keltiriladi.

Boqmas menga janona, ajab holat emasmu?
Bo'ldi yana begona, ajab holat emasmu? (*Lutfiy*)

Fitrat murojaatdan iborat nido san'atini undash atamasi ostida keltirib, tuyg'ular junbishga kelgan paytdagi "qichqirib undash" bu tasviriy vositaga asos bo'lishini ta'kidlaydi.

Ey zoli zamona, dod, faryod,
Atfolingg'a necha zulfi bedod.

Bu haynikim halok etarsan,
O'z bag'ring erurki, chok etarsan.

misralaridagi murojaat "Ey zoli zamona"ga qaratilgan, demak, misradagi bu birikma undash san'atiga asos bo'lgan.

"Adabiyot qoidalari"da tazod - qarshilantirish, ruju' - qaytish nomlari ostida keltiriladi. Ularning ta'rifi va tahlil namunalari dastlab Fitratning o'z zamondoshlari ijodidan, so'ngra mumtoz adabiyot namunalaridan keltirilgan parchalar asosida tushuntiriladi. Olim qarshilantirish san'atini izohlar ekan, dastlab Botu ijodiga murojaat etadi, misralardagi o'zaro qarama-qarshi so'zlarni birma-bir ko'rsatadi.

Yorug'likni sevaturg'on bizning tinuq ko'nglimiz,
Qachong'acha qorong'ular ichra qolar bo'g'ulub.

Demak, ushbu baytdagi *yorug'lik* va *qorong'ulik* soʻzlari qarshilantirishni shakllantirgan. Fitrat Botudan keyin Bobur ijodiga murojaat qiladi, baytlar asosida qarshilantirishning bayt mazmuniga taʼsiri masalasini koʻrsatib beradi.

Olim ijodkor uslubining yorqinligi va jozibadorligini taʼminlab beruvchi uslubining xususiy vositasi sifatida kesish va burilish tasvir vositalarini keltiradi. Bu ikki tasvir vositasi ham maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi: kesish fikrni anglatishda soʻz yetmayotganligi sabab ijodkor tomonidan tasvirni kesishga, toʻxtatishga sabab boʻlsa, burilish tasvirish uslubida ijodkor bir narsani tasvirlayotgan paytda tasvirni yoki maqsadni boshqa tomonga burishiga asoslanadi.

Maʼlumki, badiiy sanʼatlar dastlab Atoullah Husayniy tomonidan maʼno yoki shakl birlamchililiga koʻra uch turga boʻlinadi: lafziy sanʼatlar, maʼnoviy sanʼatlar, mushtarak sanʼatlar. Fitrat garchi “Adabiyot qoidalari” darsligida badiiy sanʼatlarni alohida turlarga ajratmagan boʻlsa-da, maʼnoga taʼsir qiluvchi sanʼatlarni ijodkor usulibning xususiy jihatlari izohi bilan, lafziy sanʼatlarni esa soʻz oʻyinlari nomi bilan keltiradi. Olim risolada ularga nisbatan *sanʼat* soʻzidan koʻra *oʻyin* soʻzini ishlatish maqsadga muvofiq boʻlishini taʼkidlaydi. Bu soʻz oʻyinlari arab-eron adabiyoti taʼsirida shakllangan boʻlib, Fitrat fors shoirlari va oʻzbek chigʻatoy shoirlari ijodidagi bu oʻyinlarning qoʻllanishi borasida oʻzining ilmiy xulosalarini taqdim qiladi. Bu xulosalar qiyos natijasida keltirilgan boʻlib, olimning taʼkidlashicha, fors adabiyotida yasama soʻz oʻyinlarini ishlatishni urf qilgan fors shoirlari bu xususida maxsus asarlar yozishgan, oʻzbek-chigʻatoy shoirlari esa fors shoirlari darajasiga erisha olmagan. Olim bu kabi soʻz oʻyinlarini adabiyot va sheʼr uchun foydasi yoʻqligini taʼkidlaydi, bu kabi soʻz oʻyinlariga hayotini bagʻishlagan shoirlarga nisbatan oʻz adabiy isteʼdodlarini “tekinga sovurib qoʻyganlar” deb taʼrif beradi. Xususan, olim taʼrix sanʼati haqida ijobiy munosabat bildirmaydi. Olim, tugʻilish bilan bogʻliq, madrasa, saroy, hovuz kabilarning qurilishiga bagʻishlab katta-katta shoirlarning taʼrix yozganliklarini qoralaydi. Fitratning fikriga koʻra, bu kabi soʻz oʻyinlarining adabiyot bilan, sheʼr bilan munosabati yoʻq. Demakki, olim ijodkor uslubining betakrorligini

mazmun bilan bog‘liqlikda ko‘rgan. Ma’no va mazmunga aloqasi bo‘lmagan shakliy jihatlariga e’tibor qaratmagan.

Fitrat so‘z o‘yinlari sifatida tajnis, laff va nashr, saj’, ta’rix va muammo san’atida ishtirokidagi baytlardan namunalar keltiradi, so‘z o‘yining imkoniyatini ochib beradi. Olim saj’ xususida to‘xtalganda, saj’ning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydi. Saj’ning arab adabiyotida Qur’oni karim oyati bilan bog‘liq holda izohlanganligini ta’kidlaydi. Keyinchalik fors adabiyoti va fors adabiyoti ta’siri natijasida turkiy adabiyotga kirib kelganini asoslaydi, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari va Amir Umarxon “Devon”ining muuqaddima qismidagi parchalarni keltiradi, jumlar so‘ngidagi qofiyalarga e’tibor qaratadi. Olim arab-fors sochmalaridagi saj’li yozish bizning uslubimizni buzishini ta’kidlaydi. Asarni boshdan-oyoq saj’li shaklda yozish emas, ba’zi o‘rinlardagina qofiyali jummalarni keltirish maqbul ekanligini ta’kidlab, “Alpomish” dostonidan keltirilgan parchalarni namuna sifatida keltiradi. Fitrat xalq dostonlaridagi bu ana’anani ijobiy baholaydi.

Fitrat yirik adabiyotshunos olim sifatida mumtoz ijodkorlar asarlari va ularning manbalari, matniy xususiyati va shu bilan birgalikda badiiy matnlarning poetik tahlili borasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan. Mumtoz shoirlar ijodini tahlil qilishda, ularning poetik mahoratini ochib berishda poetika ilmining bilimdoni sifatida ularning vazniy xususiyati, qofiya tizimi, badiiyatiga alohida e’tibor qaratgan, shu asosda badiiyat ilmiga oid ilmiy xulosalarini ham taqdim qilgan.

FITRAT ADABIY OQIMLAR XUSUSIDA

Abdurauf Fitrat yirik nazariyotchi olim sifatida adabiy oqimlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari borasida ham o‘z qarashlarini taqdim qilgan. Olim “Adabiyot qoidalari” asarida klassitsizm, taqlidiy klassitsizm, soxta klassitsizm, ratsionalizm, sentimentalizm, romantizm, simvolizm, modernizm, realizm, naturalizm, futurizm kabi adabiy oqimlar ularning istilohiy ma’nolari, mohiyati, adabiy oqimga kiruvchi asarlari borasida umumiy xulosalarni keltiradi. Bu ilmiy xulosalar adabiy oqimning mohiyatini anglatuvchi umumiy qarashlardan iborat.

Fitrat dastlab klassitsizm oqimi xususida to‘xtaladi. Olim klassitsizmni yunon olim Arastu bilan bog‘lab tushuntiradi. Dastlab Arastu tomonidan ijodkorlar ma’lum darajaga bo‘linib, tahlil qilingan bo‘lib, Fitrat yunon olimi tomonidan darajaga ajratilgan shoirlar klassik shoirlar, ularning asarlari klassik asarlar deb nomlanganini, keyinchalik bu atama butun adabiyot dunyosiga shu nom bilan tarqalgani va klassitsizm oqimi shaklida mumtoz asarlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Olim klassitsizm oqimi vakillari va manbalari sifatida Sa’diyning “Guliston”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Xamsa” asarlarini keltiradi. Xamsachilik an’anasi asosida yozilgan asarlarni, xususan, Navoiyning “Xamsa”si va fors adabiyotidagi asarlarga taqlidan yozilgan asarlarni taqlidiy klassitsizm oqimi namunasi sifatida taqdim etadi.

Fitrat soxta klassitsizm oqimi xususida to‘xtalar ekan, adabiyot olamida bu oqimga asos bo‘lgan adabiy jarayonni keltiradi. Yunon klassitsizm davri miloddan oldingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, adabiy oqim va asarlarning yuzaga kelishida ijtimoiy hayotning ta’siri juda katta va tabiiyki, asarlarda ham ayni davr muhiti aks etadi. Oradan XV asr vaqt o‘tib, yunon adabiyotida miloddan oldingi davr manbalaridan ta’sirlanib yozilgan asarlar yaratila boshlandi. Olim Yevropaliklarning yunon klassik adabiyotiga taqlidan yozilgan bu kabi asarlarini soxta klassitsizm sifatida baholaydi. Chunki yevropaliklar oradagi XV-XVI asrlik masofani, davriy o‘zgarishlarni hisobga olmagan holda soxta usulda ularga taqlid qilganlar. Bu holat bizning adabiyotimizda ham ko‘zga

tashlanadi. Fitrat bunday asarlar sirasiga eron adabiyotiga tushunmasdan, anglanmasdan taqlid qilib yozilgan asarlarni kiritadi.

“Adabiyot qoidalari” asarida ratsionalizm oqimi xususida batafsil to‘xtalinadi. Bu oqim vakillari va manbalarida aql ustunlik qiladi. Bu oqim vakillari va manbalarining maqsadi xalqni bilimli va savodli qilishni maqsad qilishgan. Demakki, didaktik ruhdagi asarlar ratsionalizm oqimi manbalari sanaladi. Fitrat bunday asarlarning yorqin namunasi sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror” asarlarini keltiradi. Fitrat “oqartirish” oqimining asosiy vakillari sifatida o‘z zamonasining jadidlari: Behbudiy, Avloniy, Tavallo, Xo‘ja Muin kabi ijodkorlarni sanab o‘tadi. Demak, olim ratsionalizm oqimining asosiy maqsadi sifatida xalqni “oqartirish”, insonlarni fikriy tarbiya qilishni nazarda tutgan.

Fitrat e’tibor qaratgan adabiy oqimlardan biri sentimentalizm oqimidir. Bu oqim vakillari “aqliyun oqimi”ga, ratsionalizmga qarshi qo‘yiladi. Bu oqimning o‘ziga xos xususiyati his-tuyg‘u bo‘lib, Fitrat uni hissiyun falsafasi deb ataydi. Olim bu oqim vakillari tasavvuf maslagida bo‘lgan shoirlar ekanligiga ishora qiladi, Ahmad Yassaviyni bu oqim vakili sifatida ko‘rsatish mumkinligini ta’kidlaydi.

“Adabiyot qoidalari” asarida romantizm oqimi istilohiga batafsil to‘xtalinadi. Fitrat bu oqimni har qanday qayddan ozod oqim ekanligini, ko‘ngul, tuyg‘u ongdan, tajribadan yuqori qo‘yilishini asosiy xususiyati sifatida keltiradi. Olim Cho‘lpon ijodini romantizm oqimining namunasi sifatida yuqori baholaydi.

Fitrat darsligida haqiqiylikka asoslanuvchi realizm oqimini izohlar ekan, Botu ijodiyoti romantizmdan qutulib, realizm oqimiga o‘tayotganini ta’kidlaydi. Fitrat zamonasining ilg‘or olimi sifatida yigirmanchi asarning boshlarida kirib kelgan yangi oqimlar to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltiradi. Xususan, Italiyada maydonga kelgan futurizm oqimi borasida ilmiy xulosalarini taqdim qiladi. Bu oqim vakillari harakat va tezlikka o‘zlariga asos qilib oladi. Ular vaznda ozodlik tarafdori bo‘lib, jumla tuzishda nahv qoidalarini inkor qiladilar, bu qoidalarda qutulishni istaydilar, sifatlar, tinish belgilari, ko‘makchilardan foydalanmaydilar. She’rda raqam ishlatishni ma’qul ko‘radilar. Fitrat bu oqimning yorqin vakili sifatida Oltoyni e’tirof etadi.

Fitrat adabiy oqimlar xususida to‘xtalar ekan, yuzaga kelgan oqimlarning aksariyati boshqa bir oqimdan ajratilib chiqqanligini asoslaydi. Xususan, modernizm oqimini yangi romantizm oqimi nomi bilan keltiradi. Bu oqimning asosiy xususiyati sifatida ijtimoiy harakatlar va fanniy tushunishga qarshi oqim ekanligiga ishora qiladi. Naturalizm oqimi xususida to‘xtalganda, bu oqimning realizmdan ajralib chiqqanini ta’kidlab, realizm bilan farqli jihatlarini ko‘rsatadi. Realizm oqimi hayotni, turmushni tasvirlashga asoslansa, naturalizm faqatgina tabiatni tasvir etishga tayanishini qiyoslab tushuntiradi.

Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida simvolizm oqimiga atroflicha to‘xtaladi. Mutasavvuf ijodkorlar uchun bu oqim juda maqbul oqim ekanligini ta’kidlaydi. Chunki bu oqimning o‘ziga xos xususiyati ramzlarga asoslanish bo‘lib, tasavvufdagi atamalar o‘z ramziy mazmun va mohiyatga ega.

Ko‘rinib turibdiki, Fitrat nafaqat mumtoz adabiyot namunalari tadqiqqa tortgan adabiyotshunos, balki mumtoz poetika va adabiyot nazariyasi bilan shug‘ullangan qomusiy olim sifatida adabiyotshunoslikda o‘z o‘rniga ega. Adabiyot tarixida istalgan mavzu va nazariyaga oid tadqiqotlarni Fitrat ijodiyotidan topsa bo‘ladi. Demakki, Fitrat adabiyotshunoslikni keng ko‘lamda tadqiq etgan olimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ғ. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 168 б.
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 376 b.
3. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари (Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи М.Зарифов). – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 210 б.
4. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари (Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи М.Зарифов). – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 148 б.
5. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари (Айтувчи Бекмурод Жўрабой ўғли). – Тошкент: Фан, 1999. – 130 б.
6. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари (Айтувчи: Пўлкан шоир ва Эргаш Жуманбулбул ўғли). – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – 136 б.
7. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари (Айтувчи: Берди бахши. Ёзиб олувчи Алавий). – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – 110 б.
8. Atalay B. Divanu lugatit turk tercimesi. 1 – 3 cild. – Ankara, 1939 –1941.
9. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи. И.Ҳаққулов. – Тошкент, 1991. – 254 б.
10. Аҳмад Яссавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллиёти / Нашрга тайёрловчилар: Тожи Қораев, Абул Бозоров. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.– 464 б.
11. «Девони ҳикмат»нинг йиғма-қиёсий матни / Нашрга тайёрловчи М.Эшмухамедова. – Тошкент, 2008. – 390 б.
12. «Ahmad-I Yesevi, Divani hikmat»ten seçmeler / Naz. Prof. Dr. K. Erslan. 1983.
13. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-хақойиқ. – Истанбул, 1915. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 1773.
14. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-хақойиқ. – Истанбул, 1915. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 10724.
15. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-хақойиқ. – Истанбул, 1915. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 12023.
16. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-хақойиқ. – Истанбул, 1915. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 1774.

17. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ. – Истанбул, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. Л 20941.
18. Edib Ahmed Mahmud Yugneki. Atabat'ul Nakayik. Nazirlayan Resid Rahmati Arat. – Istanbul, 1951.
19. Arat R.R Kutadgu Bilig I / Metin. – Istanbul, 1947 (асарнинг 3 нусхаси асосида тузилган қиёсий матн).
20. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – 192 б.
21. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 144 б.
22. Brokelmann.C. Mahmud al-Kasghari uber lie Sprachen un die Stamme der Turlen in XI Jahrh (Korosi Csama – Archivum). 1921. – S.29, 37 – 39.
23. Ferit Birtek. En eski turk savlari Divanu Lugati Turk'ten Derlemeler. – Ankara, 1944. – 256 s.
24. «Девону луғот» сўзлари учун фихрист. ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар фонди. Инв. №5046/1.
25. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947. – 386 с.
26. Жирмунский В.М. Сказание об Алпомише и богатырская сказка. М., 1960. – 214 с.
27. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент, 2003. – 124 б.
28. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент, 2006. – 204 б.
29. Кошғарий М. Девону луғатит турк. 3 томлик / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФА, 1960, 1961, 1963. – 988 б.
30. Маҳмуд ал-Ҳусайн бинни Муҳаммад ал-Кошғарий. Китоби Девону луғатит турк (Ўнгсўз). – Истанбул, 1933. – 426 б (араб ёзувида).
31. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Истанбул, I – II жилд, 1914; III жилд, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 5201-3.
32. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Истанбул, I – II жилд, 1914; III жилд, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 5206-3.
33. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Истанбул, I – II жилд, 1914; III жилд, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 5204-5.

34. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Истанбул, I – II жилд, 1914; III жилд, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 5206-8.

35. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Истанбул, I – II жилд, 1914; III жилд, 1916. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди. Инв. 8999.

36. Кўпрулу Ф. Турк адабиётининг маншай // Миллий татаббулар мажмуаси. 2-жилд, 4-сон (турк тилида).

37. Кўпрулу Ф. Турк адабиётида илк мутасаввуфлар. – Истанбул, 1918 (турк тилида). – 346 б.

38. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – 110 б.

39. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент-Самарқанд, 1927 // Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари / Нашрга тайёрловчи О.Ҳамроева. – Тошкент, 2008. – 194 б.

40. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1928 // Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд / Нашрга тайёрловчи О.Ҳамроева. – Тошкент, 2013. – 292 б.

41. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 188 б.

42. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 208 б.

43. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 256 б.

44. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 254 б.

45. Худойбердиев. Ж. «Девону луғотит турк»: топилиши, таржималари ва

ўрганилиши // Туркология масалалари. 2007. №1. – Б.48.

46. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 322 б.

47. Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент, 1994. – 246 б.

48. Ғаниев И. Фитратшунослик. – Бухоро, 1995. – 204 б.

49. Ҳамроева О. XX аср бошлари матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. Монография. Академнашр, 2019.

Mundarija

Fitratning davrlashtirishga oid qarashlari	5
Fitrat – aruzshunos	14
Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati	22
Fitrat tadqiqotlarida badiiy asar uslubi masalasi.....	29
Fitratning qofiyaga oid qarashlari.....	33
Fitratning tasniflash tamoyili(“Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi asosida).....	37
Fitrat – lug‘atshunos	43
Fitrat – manbashunos.....	49
Qadimgi davr manbalari tadqiqotchisi.....	54
Fitrat tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari.....	60
Milliy she’r tizimi, tahlil, talqinlar	67
Fitrat tadqiqotlarida badiiyat masalasi.....	71
Fitrat adabiy oqimlar xususida	77

Orzigul Hamroyeva

**FITRATNING ADABIYOTSHUNOSLIKKA
OID QARASHLARI**

Monografiya

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.08.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₈

Nashriyot bosma tabog‘i 4,7. Shartli bosma taboq 4,9.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10